

VOLUME 4, ISSUE 8

Scientific Journal

ERUS

Educational Research in Universal Sciences

Exact and Natural Sciences

ISSN: 2181-3515

ERUS.UZ



2025/8

ISSN 2181-3515
VOLUME 4 ISSUE 8
JUNE 2025



<https://erus.uz/>

EDUCATIONAL RESEARCH IN UNIVERSAL SCIENCES
VOLUME 4, ISSUE 8, JUNE, 2025

EDITOR-IN-CHIEF

M. Kurbonov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD

Sh. Otajonov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, National University of Uzbekistan

I. Tursunov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

B. Eshchanov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

J. Usarov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Chirchik State Pedagogical University

G. Karlibayeva

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Nukus State Pedagogical Institute

H. Jurayev

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Bukhara State University

Y. Maxmudov

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Termez State University

K. Ismaylov

Professor, Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Karshi State University

Sh. Sodikova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, National University of Uzbekistan

Sh. Pazilova

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Academy of the Armed Forces of the Republic of Uzbekistan

E. Xujanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Pedagogical University

H. Qurbanov

Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

F. Khazratov

Associate Professor, Doctor of Philosophy (Phd) in Pedagogical Sciences, Bukhara State University

M. Mansurova

Associate Professor, Candidate of Pedagogical Sciences, Tashkent State Transport University

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670259>

QURG'OQCHILIKNING KUNGABOQAR MORFOLOGIYASI, QIMMATLI XO'JALIK BELGILARI VA FIZIOLOGIYASIGA TA'SIRI

Mirzaraximova Sh.X.

O'GRITI 1-bosqich tayanch doktoranti, TTACHF tibbiy- biologik fanlar kafedrası
assisstent o'qituvchisi

Xoliqova M.A

Chirchiq davlat pedagogika universiteti b.f.f.d.

Yuldashov O'.X

O'simliklar genetik resurslari ilmiy-tadqiqot instituti b.f.f.d., katta ilmiy xodimi

Annotatsiya

*Ushbu tezisda qurg'oqchilik stressining kungaboqar (*Helianthus annuus L.*) o'simligining morfologiyasi, fiziologik jarayonlari va xo'jalik ahamiyatiga ega belgilari (urug' hosildorligi, savat diametri, urug' og'irligi) ga ta'siri ilmiy manbalar asosida yoritilgan. Qurg'oqchilik sharoitida yuzaga keladigan fotosintez pasayishi, transpiratsiya darajasining o'zgarishi, barglar sonining kamayishi kabi holatlar kungaboqarning umumiy o'sishiga va hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, qurg'oqchilikka chidamli navlarni tanlashning dolzarbligi va moslashuv strategiyalari muhokama qilingan.*

Kirish

So'nggi yillarda global iqlim o'zgarishi va ekologik omillarning keskin o'zgarishi natijasida agrar sektor oldida yangi muammolar paydo bo'lmoqda. Xususan, suv tanqisligi va qurg'oqchilik holatlari turli ekinlar, shu jumladan moyli o'simliklar — kungaboqar (*Helianthus annuus L.*) uchun dolzarb ekologik stress omiliga aylangan. Kungaboqar xalq xo'jaligida keng qo'llaniladigan, yuqori moylilikka ega bo'lgan muhim ekinlardan biri hisoblanadi [1]. Uning agrobiologik xususiyatlarini chuqur o'rganish, ayniqsa, stress omillarga chidamliligini aniqlash seleksiya va agrotexnika uchun muhim hisoblanadi. Qurg'oqchilik sharoitida kungaboqarning morfologiyasi, xo'jalik jihatdan muhim bo'lgan belgilar va fiziologik jarayonlariga

ta'siri o'rganiladi. Bu esa seleksiya, agrotexnika va resurs tejankor sug'orish tizimlarini takomillashtirishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi. Kungaboqarning morfologik tuzilishi suv miqdoriga sezilarli darajada bog'liq. Qurg'oqchilik sharoitida o'simliklarning o'sishi sekinlashadi, bo'yi qisqaradi, barglar soni va ularning yuzasi kamayadi. Poya diametri ingichkalanadi, bu esa mexanik mustahkamlikka salbiy ta'sir qiladi [2]. Ildiz tizimi esa nisbatan chuqurroq rivojlanadi, bu o'simlikning chuqur qatlamlardan suv olish imkoniyatini oshiradi. Bu moslanish holati, bir tomondan, o'simlikning stressga chidamliligini oshirsa-da, ikkinchi tomondan, yer usti biomassasining kamayishiga olib keladi.

Qurg'oqchilik kungaboqarning hosildorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Sog'lom sharoitda hosil elementlari – urug' soni, savat diametri, 1000 dona urug' massasi yuqori bo'lsa, suv tanqisligi bu ko'rsatkichlarning sezilarli pasayishiga olib keladi [3]. Qurg'oqchilik stressi sharoitida changlanish va urug'lanish jarayoni ham buzilishi mumkin, bu esa urug' sifati va miqdorining pasayishiga olib keladi. Ba'zi navlar bu omillarga nisbatan chidamliroq bo'lib, seleksiyada ustunlik kasb etadi [2]. Qurg'oqchilik sharoitida kungaboqarda fiziologik jarayonlar, xususan fotosintez, transpiratsiya va osmotik bosim o'zgaradi. Suv tanqisligi barglarda xlorofill miqdorining kamayishiga olib keladi, bu esa fotosintez jarayonining sekinlashishiga sabab bo'ladi [4]. Shuningdek, barglarning stomatalari yopilishi natijasida transpiratsiya darajasi kamayadi. Buning natijasida o'simlik suvni tejashga intiladi, ammo bu holat oziqa moddalari aylanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Qurg'oqchilikka moslashish sifatida kungaboqarda prolin va erkin shakarlar miqdori ortadi, bu esa osmotik moslashuv mexanizmining faolligidan dalolat beradi [5]. So'nggi yillarda O'zbekistonning turli agroiklim zonalarida olib borilgan tajriba natijalari kungaboqarning qurg'oqchilikka chidamliligi bo'yicha muhim ma'lumotlarni taqdim etdi. Jumladan, 2020–2023 yillar davomida Buxoro, Navoiy va Qashqadaryo viloyatlarida o'tkazilgan dala tajribalarida namlik kam bo'lgan yillarda kungaboqarning hosildorligi 20–30% gacha kamaygani kuzatilgan. Suv bilan ta'minlangan nazorat uchastkalarida o'rtacha 2,8–3,2 t/ga hosil olingan bo'lsa, qurg'oqchilik sharoitida bu ko'rsatkich 1,8–2,3 t/ga ni tashkil etdi. Bundan tashqari, barg yuzasi maydonining kamayishi (18–25% gacha) va 1000 dona urug' massasi pasayishi (6–10% gacha) kuzatildi. Bu holat suv tanqisligi fotosintetik samaradorlikka va oziqa elementlarining o'zlashtirilishiga bevosita ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Kungaboqar seleksiyasida asosiy maqsadlardan biri – qurg'oqchilikka chidamli navlarni yaratishdir. Hozirgi kunda fenotipik tanlov bilan bir qatorda molekulyar markerlar asosida seleksiya (MAS – Marker-Assisted Selection) usullari keng qo'llanilmoqda. Bu usullar o'simliklarning stressga chidamlilik genlarini aniqlab, seleksiya jarayonini tezlashtiradi. Misol uchun, AQSh, Rossiya va Ukraina tajribasida

qurg'oqchilik sharoitida bardoshli kungaboqar genotiplari DNK darajasida tahlil qilinmoqda. Shuningdek, CRISPR texnologiyasi yordamida kungaboqarda osmotik bosimni boshqaruvchi genlar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda [5].

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak bu yondashuvlar O'zbekistonda ham tatbiq qilinishi muhim bo'lib, istiqbolli ilmiy yo'nalish sanaladi. FAO va ICARDA kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan qurg'oqchilik stressiga qarshi ekinlar tanlash bo'yicha keng ko'lamli tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan, Markaziy Osiyoda olib borilgan monitoring natijalariga ko'ra, suv resurslarini tejaydigan agrotexnologiyalar, ekologik mos seleksiya va genetik resurslar banki yaratish asosiy strategiyalar sifatida belgilanmoqda.

Xalqaro tajribadan kelib chiqib, O'zbekistonda ham kungaboqarning genetik xilma-xilligini saqlab qolish, mahalliy iqlim sharoitlariga mos navlar bazasini yaratish va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda yangi navlar ustida ishlash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov A. va boshq. (2020). Qishloq xo'jalik ekinlari fiziologiyasi. Toshkent: O'zbekiston FA.
2. Rustamova D. (2019). Qurg'oqchilikka chidamli kungaboqar navlarining seleksiyasi. Agrobiologiya jurnali, №3.
3. Aliyev A.M. (2021). Suv stressining o'simliklar metabolizmiga ta'siri. O'zR FA xabarlari, №1.
4. Sattarov S. (2018). Ekinlar fiziologiyasi va ekologiyasi. Toshkent: "Fan va texnologiya".
5. FAO Report (2022). Climate change and crop productivity.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670277>

YADRO TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHDA ELEKTRON O'QUV QO'LLANMALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Qurbonov Mirzaahmad

O'zbekiston milliy universiteti fizika fakulteti
"Umumiy fizika" kafedrası p.f.d, professori

Ergashev Asqar Jong'oboyevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti "Fizika,
biofizika va tibbiy fizika" kafedrası PhD assistenti

Rustamova Nigora

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti qoshidagi
akademik litsey 105-guruh talabasi

ANNOTATSIYA

Yadro texnologiyalarisi fanini o'qitishda elektron o'quv qo'llanmalar va mabil ilova dasturi, multimediali elektron o'quv qo'llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo'lishida inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish, balki ko'rish orqali yetib borishi, kompyuterda va telefonda mabil ilova dasturini tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo'lishi kerak. Mobil ilova dasturi, multimediali elektron o'quv qo'llanma kunduzgi ta'lim oluvchilarning va mustaqil ishlari, masofadan o'qitish tizimini talabalarga yaxshi samara beradi.

Kalit so'zi: Yadro texnologiya, multimediya, mobil ilova dastur, video va audio.

O'quv fanlari yoki ma'lum bir bo'lim yoki mavzular doirasidagi elektron qo'llanmalarining yaratilishi va amaliyotga joriy etilishi ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyatga ega. Yaratilayotgan elektron o'quv qo'llanma har tomonlama talabga javob beradigan hamda talaba uchun qiziqarli bo'lishi lozim. Elektron o'quv qo'llanma – kompyuter texnologiyasiga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samarador o'zlashtirilishiga mo'ljallangan bo'lib, hozirda uning 4 ta avlodi mavjud:

1-avlod – o‘quv materiallar faqat verbal (matn) shaklda;

2-avlod – o‘quv materiallar verbal shaklda va ikki o‘lchamli grafik shaklda;

3-avlod – multimedia (ko‘p axborotli) qo‘llanmalar, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal shaklda;

4-avlod – taktil (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli, o‘quvchini “ekran olamida” stereo nusxasi tasvirlangan haqiqiy olamga kirishi va undagi obyektlarga nisbatan harakatlanish tasavvurini yaratadigan shaklda ifodalanadi. Elektron o‘quv qo‘llanma yuqori metodik va ilmiy darajada yaratiladi. U elektron ko‘rinishda bo‘lib, bunda ilmiy texnika rivoji va yuqori sifat mavjud. Ekranlashtirilgan o‘quv adabiyotining bu janri mutloq yangidir. Kitobni xuddi film tomosha qilgandek tushunish mumkin. Bu janrni yangilash ham oson, ham qulay bo‘lib, qidirish tizimiga ega. U o‘zida boy ma’lumotlar matnlar, rasm, ma’lumotnomalar, video joy olgan bo‘lishi mumkin.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yodamida axborotning an’anaviy va original turlari asosida o‘quv materiallarini tinglovchilarga yetkazib yerishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir. Multimediali elektron o‘quv qo‘llanma maksimal darajada tushunish va tushuntirilishga ega bo‘lishi, inson miyasi, ongiga nafaqat eshitish, balki ko‘rish orqali yetib borishi, kompyuter tushuntirishidan foydalanish kerak. Tashkil qiluvchi matnlar hajmi chegaralangan bo‘lishi kerak. Multimediali elektron o‘quv qo‘llanma kunduzgi ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlari, ayniqsa, masofadan o‘qitish tizimi uchun zarur bo‘lib, bu:

- o‘qilayotgan materialni tushunish osonligi, bosma o‘quv adabiyotdan ko‘ra, material uzatish imkoniyatlari: induktiv yon berish, emotsional va o‘zgarishli xotira harakatlari;

- ishni chiroyli va tartibli shakllantirish va o‘qituvchi uni fayl va qog‘ozga bosma holda keltirish imkoniyatlarini beradi;

- cheksiz malakaviy tushuntirishlarning taqdim etilishi, takrorlik;

- o‘rganayotgan predmetini to‘liq va mustaqil o‘zlashtirish uchun elektron o‘quv qo‘llanma talaba uchun zarur.

Multimediali elektron o‘quv qo‘llanma murabbiy uchun qulay bo‘lib, u:

- dars davomida ma’ruzalar matnini o‘qimasdan balki, kompyuter yordamida o‘quvchi va talabalarga yetkazish va mustaqil ishlarni vaqtida berish;

- uy vazifalarini tekshirishda turli hisoblash va tekshiruv ishlarida kompyuter va elektron o'quv qullanmaning qulayligi;

- vazifa va ma'ruzalar matnini mustaqil bajarish va o'zlashtirish uchun uydagi kompyuterga elektron pochta orqali yuborishi;

- talabalar bilan yaklama-yakka ishlash va ishlarni tekshirib turishi uchun qulaydir.

Multimedia hozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo'lib, u quyidagi xususiyatlarga ega:

- an'anaviy axborot turlarini: matn, jadval, turli xil bezaklar hamda original axborot turlarini: nutq, musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko'rinishdagi axborotlarni o'z ichiga oladi;

- video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessorning harakatchanligini, ma'lumotlarni uzatish shinasining o'tkazish qobiliyatini, tezkor va video xotira hajmini, katta hajmli tashqi xotirani, kompyuter kirish-chiqish kanallari bo'yicha almashuvi tezligini taxminan ikki baravar oshirish talab etiladi;

- "inson-kompyuter-inson" interaktiv muloqotining yangi darajasining ta'minlanishi, muloqot jarayonida foydalanuvchi ancha keng va har tomonlama axborotlarni olishi. Darslik va elektron trenajyor funksiyalarini bajaruvchi o'quv qo'llanma multimediya elektron o'quv resursining yadrosi bo'lib sanaladi. U bo'limlar bo'yicha modulli tuzilishga ega bo'lib, modullar (bo'limlar) orasidagi aloqa gipermurojaatlar yordamida amalga oshiriladi. Bo'limlar va mavzular bo'yicha kirish «mundarija» uskunasi orqali amalga oshiriladi. U o'zida kursning barcha mavzularini ierarxik tuzilish tarzida jamlagan bo'ladi.

Har bir modul (bo'lim) da tasvir, jadval, grafikka ega bo'lgan gipermatn mavjud. Har bir dars dasturiy va uslubiy vositalar majmuaini o'zida jamlaydi. Bu vositalar darsni o'tkazishni ta'minlaydi.

Elektron o'quv adabiyotlarni ishlab chiqish uzoq muddatli va katta mablag'larni talab qiluvchi jarayondir. Shuning uchun elektron darsliklar yoki qo'llanmalarni yaratishning barcha bosqichlarini hamda har bir bosqichidagi qabul qilinishi mumkin bo'lgan yechimlarni oldindan belgilab olish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. K.Brindli, J.Karr. Elektron muhandisning daftarchasi. Ingliz tilidan tarjima. M. XXI nashriyot uyi. 2002.
2. P.Ismatullayev, Sh.Qodirova, G'.G'oziyev. "Elektr o'lchashlar va o'lchash asboblari". Toshkent. "Sharq". 2007.
3. A.A.Bokiyev, A.M.Denmuxammadiyev. "Elektrotexnika va elektronika asoslari". Toshkent. 2018.
4. L.X.Turabova. "Fizik asboblari, ularning turlari va ishlash prinsipi" mavzusining elektron o'quv uslubiy majmuasini yaratish metodikasi. Magistrlik dissertatsiya ishi. Navoiy. 2022.
5. E.X Bozorov. E.J Ergashev. Oliy ta'lim muassaslarida "Rentgen diagnostikasi" mavzusini o'qitishda interfaol usullardan foydalanish uslublari. O'zMU xabarlarini vestnik nuuz actanuuuz Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журналы тошкент – 2022 yil 68-71 betlar
6. E.X Bozorov. E.J Ergashev. Yadro texnologiya fanlarini o'qitishda innovatsiyalar: ijodiy jamoa metodi Mutafakkir illmiy jurnali 2-son ISSN:2181-3310 №1 2- may Toshkent 2022 y 159-164 betla.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670285>

YADRO TEXNOLOGIYA FANINI O‘QITISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Qurbonov Mirzaahmad

O‘zbekiston milliy universiteti fizika fakulteti
“Umumiy fizika” kafedrası p.f.d, professori

Bozorov Erkin Xojiyevich

O‘zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi
Yadro fizikasi instituti f-m.f.d professori

Ergashev Asqar Jong‘oboyevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti “Fizika,
biofizika va tibbiy fizika” kafedrası PhD assistenti

Innovatsion jarayonlarda o‘qitishning maqsadi - tinglovchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini shakllantirish asosida, ularning yangi bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini rivojlantirishdan iborat. Aytish joizki talabaning shaxsiy fazilatlari, uning ijodiy salohiyati va aql-idrokini maqsadli rivojlantirish orqali qo‘yilgan maqsadga erishish oson kechadi.

Yadro texnologiya fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalari tinglovchilarning darsdagi faoliyat turlarini o‘z ichiga olishi kerak, chunki tinglovchilarning darsdagi faoliyati nafaqat jismoniy bilimlarning mazmuni va tuzilishi, balki ularning individual ehtiyojlari va qiziqishlari bilan ham belgilanadi. Yadro texnologiya fanini o‘qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish metodologiyasi - tinglovchilarning dars mazmuniga ijobiy hissiy munosabatini va o‘quv faoliyatida muvaffaqiyatga erishishga yo‘naltirilganligini ta‘minlasagina samarali bo‘ladi. Zamonaviy innovatsion ta‘limning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri fan bo‘yicha fakultativ kurslarni ishlab chiqish va o‘quv faoliyatiga joriy etish hisoblanadi. Ushbu kurslar eng avvalo, har bir tinglovchining individual ta‘lim qiziqishlari, ehtiyojlari va moyilliklarini qondirish bilan bog‘liq. Aynan ular mohiyatan individual ta‘lim dasturlarini qurishning eng muhim vositasidir.

Tinglovchilarning xohish-istaklarini tahlil qilish orqali quyidagi ba‘zi kurslarni tavsiya qilish mumkin: “Fizikava yadro texnologiya tarixi”, “Yadro tibbiyoti va yadro

energetikasi”, “Muammolarni hal qilish orqali yadro texnologiya fanini yanada chuqurroq o‘rganish”, “Yadro texnologiya va ilmiy bilish usullari”.

O‘qitishning innovatsion usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun:

- Zamonaviy axborot bilimlari, texnologiyalari va ularni qo‘llash metodologiyasini mukammal o‘zlashtirish;
- Har qanday muammoni tashabbuskorlik, mustaqillik va mas’uliyat bilan muvaffaqiyatli hal qilish;
- Tinglovchilarning haqiqiy hayotiy manfaatlarini ko‘rish va tushunish;
- O‘rganilayotgan materialni tinglovchilarning kundalik hayoti va yoshiga bo‘lgan qiziqishlari bilan bog‘lash;
- Ta’lim va darsdan tashqari amaliyotda bilim va ko‘nikmalarni mustahkamlash;
- “Muvaffaqiyat holatini yaratish” usulidan mukammal foydalanish, kabilar zarur omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. E.X Bozorov. E.J Ergashev. Oliy ta’lim muassaslarida “Rentgen diagnostikasi” mavzusini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish uslublari. O‘zMU xabarleri вестник нууз астанууз Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети илмий журналы тошкент – 2022 yil 68-71 betlar

2. E.X Bozorov. E.J Ergashev. Yadro texnologiya fanlarini o‘qitishda innovatsiyalar: ijodiy jamoa metodi Mutafakkir ilmiy jurnali 2-son ISSN:2181-3310 №1 2- may Toshkent 2022 y 159-164 betla.

3. A.Q.Ajabov, R.Q.Turniyazov, S.R.Xolliyev, K.A.Saydullayev. Metodika provedeniya leksionno-seminarskix zanyatij po fiziki. “Fizika fanining texnika sohasidagi tutgan o‘rni” Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Nukus. 2021 yil 28-may. 337-338 betlar.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670299>

YADRO TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISH METODIKASINING ASOSIY BO'LIMLARI VA ULARDA O'RGANILADIGAN MUAMMOLAR

Qurbonov Mirzaahmad

O'zbekiston milliy universiteti fizika fakulteti

“Umumiy fizika” kafedrası p.f.d, professori

Ergashev Asqar Jong'oboyevich

Samarqand Davlat tibbiyot universiteti “Fizika,

biofizika va tibbiy fizika” kafedrası PhD assistenti

Kirish. Yadro texnologiyasi fanini o'qitish metodikasi pedagogika fani sifatida, uning predmeti va tekshirish metodlari. Yadro texnologiyasi fanini o'qitish metodikasining oliy o'quv yurtlarida o'quv predmeti sifatidagi vazifalari. Oliy ta'lim va magistratura o'quv predmeti sifatida hamda uning o'qitilishidagi vazifalar. Yadro texnologiyasi fanini oliy tibbiyot universitetlarida tahlil (radial, konsentrik va bosqichli). Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinishi munosabati bilan yadro texnologiya fanining kontsepsiyasi, undagi asosiy g'oyalar o'qitishning birinchi va ikkinchi bosqichida yadro texnologiya fanining mazmuni va tuzilishidir. Yadro texnologiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari: Yadro texnologiya fanining asosiy yadro tibbiyoti va atom elektr stansiyasi bo'yicha, malaka va ko'nikmalar, mustahkam bilimlarga ega bo'lish, politexnik bilimga ega bo'lish, o'quvchilarda yadro texnologiya faniga bo'lgan sevgi va hurmatni hosil qilish, fikrlash va bilish qobiliyatlarini rivojlantirish, dunyoqarashni shakllantirish, kabilardan iborat. Tibbiyot oliygohlarida yadro texnologiya fanining strukturasi va mazmuni. Oliy ta'limda yadro texnologiya fanini o'qitish metodikasining o'ziga xos tomonlari. Yadrotexnologiyasi fanining o'qitish metodikasi kursini o'rganish jarayonida talabalar yadro texnologiya darsliklari, o'quv qo'llanmalari va asosiy metodik adabiyotlar bilan tanishishlari kerak bo'ladi. Yadro texnologiya fanining asosiy bo'limlarining mazmunini ochishda dunyoqarashni rivojlantirish, politexnik ta'lim muammosiga jiddiy e'tibor berish kerak bo'ladi.

Asosiy qism: Yadro texnologiya fanini o'qitish metodikasi bo'yicha o'quv materiallar hajmining kattaligi ularning hammasini ma'ruzada bayon etish

imkoniyatini bermaydi. Materialning ma'lum qismi seminar va laboratoriya mashg'ulotlariga, shuningdek pedagogik malakaviy amaliyot davrida o'rganiladi. Yadro texnologiya faning o'qitish metodikasi kursining dasturida ba'zi umumiy apparatlar maxsus bo'limlarda xususiy metodika savollar keyin berilgan. Bu hol talabalar xususiy metodikaning tegishli savollarni o'tgandan keyin, mazkur savollar mohiyatini muvaffaqiyatli tushunib yetishlari mumkinligi nazarda tutadi. Yadro texnologiya fani yadro tibbiyoti va atom energetikasi sifatida Oliy o'quv yurtlari bakalavriyat va magistratura ta'limda o'qitishning takomillashtirishda FO'M ning vazifalari va dolzarb muammolari: ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ma'naviy tarbiyaviy tadbirlar. Talabalarning kasb tanlashida yadro texnologiyaning roli. Yadro texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilar aqliy faoliyatlari va tushunchalarining rivojlanish darajasini bosqichli ravishda tashkil qilish nazariyasidagi asosiy tamoyillar. Oliy ta'lim o'quv yurtlarida yadro texnologiya fanining tuzilishi: Oliy ta'limda, kasbiy yo'nalishdagi yadro texnologiya fanining tuzilishi: Oliy ta'limda, kasbiy yo'nalishdagi institudlar va universitetlar, alohida tanlangan mavzular chuqur o'qitiladigan institudlar va universitetlardir.

Xulosa: Oliy o'quv yurtlarida FO'M ning xususiytlari: Tibbiyot universitetlarida, institutlarda maxsus mutaxassislashtirilgan o'qitishni tashkil qilishni xususiyatlari. Yadro texnologiya fanini o'qitish tizimlari. O'quvni tashkil qilish turlari: ma'ruza, seminar, konferentsiya, ekskursiya. Ularning qisqacha tasnifi. Yadro texnologiya fanini dars turlari va tuzilishi, darsga qo'yiladigan asosiy talablar. Fakultativ mashg'ulotlar, ularning vazifasi va o'tkazish metodlari. Yadro texnologiya fanini bo'yicha guruhdan tashqari ishlarni tashkil qilish. Yadro texnologiya fanini o'qitish maqsadlari bilan o'quv jaryoni rejalashtirish orasidagi bog'lanish. Yadro texnologiya fanini o'qitishda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670308>

ASALARIDA AMERIKACHA CHIRISH KASALLIGIGA QARSHI KURASHISH TADBIRLARI

Mamanova Xumora Alisher qizi ¹

Abduraxmonov Baxodir Abdug'affor o'g'li ²

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Toshkent filiali talabalari ^{1,2}

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asalarichilikda keng tarqalgan Amerikacha chirish kasalligi, kasallikning belgilari va unga qarshi kurash choralari haqida ma'lumotlar hamda kasallikni oldini olish haqida tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Asalarilar, dezinfeksiya, *Histolysis infectiosa*, inkubatsiya davri, lichinkalar, *Paenibacillus larvae*.

Mavzuning dolzarbligi. Amerikacha chirish kasalligi xo'jaliklarga nihoyatda katta zarar keltiradi. Kasal oila har yili 5-40 kg dan asal va 0.5 kg mum berishi kamayadi gullarni changlatish 30-80% ga kamayadi. qo'shimcha qilib aytish mumkinki, asalari oilasi kasallanganda 20-80% ga asal yig'ishi kamayadi va 2-3 yilda butunlay nobud bo'ladi. Ayrim hollarda nosog'lom asalari xo'jaligidagi barcha qutilardagi oilalar o'ladi. Butun Jahon Hayvonlar Sog'lig'ini saqlash tashkiloti amerikacha chirishni asalarining karantin kasalliklari va majburiy ro'yhatga olinadigan B kasalliklar guruhiga kiritgan. Kasallik odatda yozda ona ari ko'p tuxum qo'yayotgan paytda bo'ladi. Bu kasallik bilan katta zararlangan asalari oilasi yoz o'rtasida nobud bo'ladi. Qishlab chiqqan asalarilarda ham bu kasallik avj oladi.

Qo'zg'atuvchisi. Amerikacha chirish lotincha-*Histolysis infectiosa* pernicioza larva apium, *Pestis apium Atamericana*, inglizcha- *Atamerican foulbrood*, ruscha- американский гнилец deyiladi. Bu kasallikni *Larvae* batsillasi qo'zg'atadi. Kasallik qo'zg'atuvchisi grammusbat uchlari egilgan tayoqcha bo'lib oddiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi va 1.5-6 x 0.5-0.8 mkm hajmli tayoqcha harakatchan, spiroxetsimon xivchin saqlaydigan mikroba hisoblanadi. Qo'zg'atuvchi juda chidamli sporalar hosil qiladi. *Bacillus larvae* maxsus ozuqa muhitlarida, 35-38 C, pH=6.2-7.2 da yaxshi o'sadi. Neytral go'sht pepton agariga 10 % li ot qoni zardobi qo'shib tayyorlangan ozuqa muhiti qo'zg'atuvchi o'sishi uchun juda mosdir. Qattiq oziq muhitlarda qo'zg'atuvchi alohida joylashgan koloniyalar hosil qiladi, Tomashetsa oziqa muhitida

24 soatdan keyin yuzasida nozik va biroz bo'rtgan R-shaklli, avval tiniq keyin ko'kimsir rangli koloniyalar hosil qiladi.

Qo'zg'atuvchining chidamliligi. Asal va o'lgan lichinkalarda qo'zg'atuvchi uzoq vaqt saqlanadi. Boshqa mikroorganizmlar ya'ni gram manfiy va gram musbatlar bu kasallikdan o'lgan lichinkalarda bo'lmaydi, sababi qo'zg'atuvchining ko'payishi vaqtida antibiotik modda ajratib chiqarishidir. Qo'zg'atuvchi sporasi ancha chidamli bo'lib, asalari ozuqasida, tuproqda, o'lib qurigan lichinkalarda saqlanadi.

• Quruq tuproqda sporalar 228 kun, asal tarkibida 1 yil davomida o'z virulentlik kuchini saqlaydi, o'lgan ari va qora mumda 10 yil, asalda 1 yilgacha, uya ichkarisida 20 yil faol yashaydi.

- Qo'zg'atuvchining vegetativ shakli 60 C da 15 daqiqada faolsizlanadi
- Qo'zg'atuvchining spora shakli suvda 100 C da 30 daqiqada, asalda 100 C-160 C da 40 daqiqada faolsizlanadi.

Kasallikning klinik belgilari. Kasallik ikki mavsumda namoyon bo'ladi. 1- mavsum



iyun oxirida iyul boshida kelib chiqadi davolanilmasa 2- mavsum avgust oxirida namoyon bo'ladi. Kasallikning inkubatsion davri 9-10 kun yoki 2-3 kun davom etadi. Kasallik ikki xil namoyon bo'ladi:

1. klinik belgisiz (yashirin-latent)
2. yorqin namoyon bo'ladigan

Birinchi yashirin davr kuzatiladi va keyin yorqin namoyon bo'ladigan shakl bo'ladi. Yashirin davrda qo'zg'atuvchi barcha asalarilar va asalda aniqlanadi. Ona asalari lichinkalarni kasallanganligini aniqlab uni sog'lom lichinkalardan ajratib oladi. Bu davrda 50-90 % kasal 0.5-1.5 kunlik lichinkalar ajratib yo'qotiladi. Bu vaqtda kasallik belgisini mumkatakda notekis va olabula joylashishidan ko'rish mumkin. Kasallik yorqin namoyon bo'lganda bunda oilada yo'l-yo'l lichinkalar paydo bo'la boshlaydi. Bunda asosan lichinkalar kasallanadi, ayrim hollarda erkak asalari va ona asalari kasallanadi. Ochiq mumkataklardagi lichinkalar tezroq nobud bo'ladi. Lichinkalar po'sti yupqalashadi, oson yirtiladi, kasallik rivojlanishi natijasida lichinka qorayadi. O'lgan lichinkalar esa qo'ng'ir va yopishqoq bo'lib, tortilsa 10-15 sm ipaksimon ipdek tortiladi (1- rasm) va undan yog'och kley hidi keladi. Bir oydan so'ng bu massalar uyalar tagida qotib qoladi va asalari uni tozalay olmaydi.

Patologoanatomik o'zgarishlar. Amerikacha chirish kasalligi kechishida lichinkalar 4 bosqichda o'zgaradi. 1-bosqichda lichinkalar shakli o'zgaradi, tanasida loysimon

sariq dog‘lar paydo bo‘ladi.2-bosqichda lichinkalar shakli yo‘qoladi ,o‘lgan lichinkalar qiyshaygan,kley hidli va jigar tusli bo‘ladi.3-bosqichda lichinkalar kofe rangli bo‘lib chirigan massaga aylanadi.4-bosqichda lichinkalar rangi qora tusga kiradi va kataklarga qattiq yopishgan bo‘ladi.(2-rasm)

Kasallikka qarshi kurashish chora-tadbirlari.Amerikacha chirish kasalligi aniqlangan asalari xo‘jaligida tuman veterinariya noziri dalolatnomasi va hokim qarori asosida 7 km hudud doirasida karantin e‘lon qilinadi.Kasallikka gumon qilingan ari oilalari tekshiriladi va kasallangan ari oilalari aniqlanib, qurtchali inchalardan namuna ajratib olinib laboratoriyaga tekshirish uchun jo‘natiladi.Agarda kasallik ari oilasiga endigina yuqqan bo‘lsa u holda o‘sha oila oltingugurt , efir yoki formalin bug‘lari dudlatilib o‘ldiriladi so‘ngra yoqiladi. (3-rasm).Agarda kasallik bir nechta oilalarga o‘tgan bo‘lsa u holda kechki payt ari oilalari dezinfeksiyalangan toza uyalarga o‘tkaziladi.Kasallangan uyalardagi asallar olinib yopiq idishda saqlanadi.Qutilar tagidagi yer 3 qism tuproqqa 1 qism xlorli ohak aralashtirilib dezinfeksiya qilinadi. Arixonani dezinfeksiya qilish oldidan yaxshilab mum, propolisdan tozalab, 3 % li kir sodasida yuviladi, quritiladi va 20 % li kaustik soda-potash aralashmasi bilan 2 soatda ishlov beriladi. Aralashma 1m kvadrat maydonga 0,5 litr hisobida sarflanadi.Dezinfeksiya qilingan arixona 1 24 soatdan keyin toza suv bilan yuvib , quritiladi.Arixonani romlari, bo‘luvchi to‘r qismlari o‘yuvchi natriyning 2 % li eritmasida 15 daqiqa qaynatiladi. 3%li sirka yoki chumoli kislotasi qo‘shilgan 10 % li vodorod peroksidi bilan 3 marta , 5% li formaldegid yoki o‘yuvchi natriy eritmasi bilan 2 marta dezinfeksiya qilish samara beradi.Ramkalar 15 daqiqa 2-4 % li o‘yuvchi natriy eritmasida qaynatiladi.Xalat, sochiq, yuz niqobi to‘rlari 3 soat 2 % li vodorod peroksidi, 4 % li formaldegid eitmasida 4 soat qaynatiladi.Asal oluvchi moslama 3 % li issiq kul ishqorida yuvilib, 5 % li formaldegid , o‘yuvchi natriyda 5 soat ekspozitsiyada dezinfeksiya qilinadi.

Kasallik oldini olish chora-tadbirlari. Profilaktika maqsadida doimiy ravishda quyidagi ishlar amalga oshirish lozim:

- oilalar qishlashga yetarli miqdorda ozuqa qoldirish lozim,bir mavsum davomida ramkalarni 30 % yangilanish ishlari o‘tkazish lozim.
- bo‘sh asalarilar kataklari , uskunalar mexanik tozalinishi, dezinfektsiyalanishi kerak.
- bahordagi tekshiruvda bir katakda kamida 10 kg asal va perga saqlaydigan 1-2 ramkalar qoldiriladi.Bahordagi xo‘jalikni tekshirish vaqtida 15 % zahira uyalar bo‘lishi lozim ,qolaversa,mumkatakdan 2 yildan ortiq foydalanmaslik lozim.
- asalarini hayot faoliyati davomida o‘ta issiqda qoldirmaslik va muntazam mumkataklarni ko‘zdan kechirish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amerikacha chirish kasalligining tarqatuvchilari kasallangan va nobud bo'lgan lichinkalar hisoblanadi. Mum katakchalarni tozalovchi yosh ishchi asalarilar asosiy tarqatuvchilar bo'lib ular virus bilan boshqa asalarilarni zararlaydi. Kasallangan asalari oilasidan ona ari ajratib olinadi va davolanadigan oilaga yangi sog'lom ona ari qo'yiladi. Bu kasallik o'z vaqtida aniqlanmasa bu katta iqtisodiy zarar keltiradi, shuning uchun kasallikni oldini olishga ko'proq e'tibor qaratish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Respublikamizda asalarichilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlar to'g'risida" gi qarori 2017-yil 16-oktabr PQ-3327 -sonli qarori. www.lex.uz
2. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" o'quv qo'llanma – Sh.N.Nasimov, V.A.Gerasimchik, Z.B.Mamatova, F.A.Xabibova – "Fan ziyosi" nashriyoti Toshkent 2021
3. "Epizootologiya" darslik – X.S.Salimov, A.A.Qambarov Samarqand 2016
4. "Asalarichilik" uslubiy qo'llanma – J.Jo'rayev, T.E.Ostonqulov, N.O.Farmonov 2011- yil
5. "Asalarichilik fermer xo'jaliklarini tashkil etish va yuritish" kasb –hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma – R.X. Pulatova Toshkent "Noshir" 2013
6. "Asalari kasalliklari va zararkunandalari" - A.I.Isamuhamedov, H.K. Nikadambayev Toshkent 2013
7. Internet sayti: <https://uz.beekeepers.uz>
8. <https://asalarichilik.uz/>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670325>

SOYA O'SIMLIGINING TOSH-SHAG'ALLI TUPROQLAR UNUMDORLIGIGA TA'SIRI

Zakirova S.X

q.x.f.d.professor Farg'ona davlat universiteti professori,

Aminjonova N.N

Farg'ona davlat universiteti magistranti.

ANNOTATSIYA

Farg'ona viloyatining tosh shag'alli tuproqlarning unumdorligini soya o'simligi (Glycine max) ishtirokida oshirish masalasiga bag'ishlangan. Tosh shag'alli tuproqlarning past organik moddalar miqdori, suv va ozuqa moddalarini ushlab turish qobiliyatining zaifligi, shuningdek, eroziya xavfi kabi muammolari tahlil qilinadi. Soya o'simligining azot fiksatsiyasi, organik moddalar qo'shishi, tuproq tuzilishini yaxshilash va eroziyaga qarshi ta'siri kabi xususiyatlari tuproq unumdorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatiladi. Maqolada soya o'simligini almashlab ekish, yashil o'g'it sifatida ishlatish va qator oralarida ekish kabi amaliy usullar Farg'ona viloyatining iqlim va tuproq sharoitlari asosida tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: tosh-shag'al, eroziya, sug'oriladigan tuproqlar, unumdorlik, gumus, soya o'simligi, azot, azotifikator bakteriyalar.

ANNOTATION

This article is devoted to the issue of increasing the fertility of stony gravel soils of Fergana region with the participation of soybean (Glycine max). The problems of stony gravel soils, such as low organic matter content, poor water and nutrient retention capacity, as well as the risk of erosion, are analyzed. It is shown that the properties of soybean, such as nitrogen fixation, organic matter addition, soil structure improvement and anti-erosion effect, are important in increasing soil fertility. The article recommends practical methods such as crop rotation, use of soybean as a green manure, and inter-row planting based on the climatic and soil conditions of Fergana region.

Keywords: gravel, erosion, irrigated soils, fertility, humus, soybean, nitrogen, nitrogen-fixing bacteria.

KIRISH.

Farg'ona vodiysining O'zbekiston qismining umumiy maydoni 1 mln. 919 ming 200 ga ni, shundan sug'oriladigan yerlar 661,2 ming gektar, meliorativ holatini yaxshilashgan ajratilgan yerlar esa 904 ming gektarni tashkil qiladi. Vodiyning sharqiy qismi adirlar bilan o'ralgan maydonlarining asosiy qismi bo'z tuproqlar mintaqasiga to'g'ri kelsa, cho'kmaning markaziy qismi esa cho'l mintaqasiga to'g'ri keladi va bu mintaqalarga xos bo'lgan bo'z tuproqlar, o'tloqi saz, sho'rxoklar, qum barxanlari, botqoqliklar tarqalgan.

Farg'ona vodiysi agrolandshaftlarida sug'oriladigan tuproqlar inson faoliyati ta'sirida katta o'zgarishlarga uchragan. Sug'orishlar ta'sirida tuproqlar o'zining tabiiy belgilarni, xossa va xususiyatlarini o'zgartirgan. Ko'plab tadqiqotchilar insonlar tomonidan tuproqqa o'tkaziladigan sug'orishlar, ishlov berishlar va boshqa agrotexnik tadbirlarni rolini ochib berishga harakat qilganlar.

Farg'ona vodiysining janubida joylashgan Quvasoy shahrida tarqalgan bo'z tuproqlarda ham uzoq yillar davomida sug'orish suvlarining tabiiy loyqalanish davri tuproqning zichligiga yoki hajmiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Ko'pgina hollarda, tosh-shag'alli tuproqlarda o'sadigan qishloq xo'jaligi ekinlari tuproq tarkibidagi ozuq moddalariga o't qoplamining qalinligi va rivojlanish darajasiga nisbatan javob berishi kuzatildi. Adabiyot manbalarining tahlilida ko'pgina hollarda mineral o'g'itlardan foydalanish oziq-ovqat ekinlarining kimyoviy tarkibi va saqlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, degan xulosaga olib keladi. Tuproq sharoiti o'g'it samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi.

Tuproqning unumdorligiga qarab undagi asosiy ozuqa moddalarining mavjudligi, turli xil meyorlarda bo'lishi ma'lum bir o'g'itning samaradorligini belgilaydi. Farg'ona viloyatida tosh shag'alli tuproqlar asosan daryo vodiylari va tog' yonbag'irlarida joylashgan bo'lib, ularning tarkibida shag'al, tosh va qum fraksiyalari ustunlik qiladi. Bu tuproqlarning asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

Past organik moddalar miqdori: Tosh shag'alli tuproqlar organik moddalarga juda kam bo'lib, bu ularning unumdorligini pasaytiradi.

Suv va ozuqa moddalarini ushlab turish qobiliyatining pastligi: Tosh shag'alli tuproqlarning tuzilishi tufayli suv va ozuqa moddalari tez yuvilib ketadi.

Tuproqning fizikaviy xususiyatlari: Bu tuproqlarning zichligi yuqori, shuning uchun ildiz tizimining rivojlanishi cheklanadi.

Eroziya xavfi: Suv va shamol eroziyasi bu tuproqlarni yanada unumsiz qiladi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun organik moddalar miqdorini oshirish, tuproq tuzilishini yaxshilash va suvni ushlab turish qobiliyatini kuchaytirish zarur. Bunda soya o'simligi muhim rol o'ynaydi.

Soya (*Glycine max*) dukkakli ekinlar oilasiga mansub bo'lib, tuproq unumdorligini oshirishda bir qator afzalliklarga ega.

Azot fiksatsiyasi qilishi, soya o'simligi ildizlarida *Rhizobium* bakteriyalari bilan simbioz hosil qiladi. Bu bakteriyalar atmosferadagi azotni o'simlik uchun foydalaniladigan shaklga aylantiradi. Natijada tuproq azotga boyiydi, bu esa keyingi ekinlarning hosildorligini oshiradi. Organik moddalar miqdorini ko'paytirish, soya o'simligining ildiz va poya qoldiqlari tuproqqa chiriganida gumus hosil qiladi, bu tuproqning unumdorligini oshiradi.

Tuproq tuzilishini yaxshilash, soya o'simligining ildiz tizimi tuproqning zich qatlamlarini yumshatadi va uning suv o'tkazuvchanligini oshiradi. Eroziyaga qarshi ta'sir, soya o'simligining zich barg tizimi tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoya qiladi. Ozuqa moddalarining aylanishi, soya o'simligi tuproqdan chuqur qatlamlarda joylashgan ozuqa moddalarini yuzaga chiqaradi, bu esa tuproqning kimyoviy tarkibini yaxshilaydi.

Almashlab ekish (ekin almashinuv) tizimida soya o'simligini paxta, bug'doy yoki makkajo'xori kabi asosiy ekinlar bilan navbatma-navbat ekish samarali hisoblanadi. Masalan, bir yil soya ekilgan maydonga keyingi yil paxta yoki don ekinlari ekilishi mumkin. Bu tuproqning azot bilan boyitilishini ta'minlaydi va kimyoviy o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytiradi. Soya o'simligini yashil o'g'it sifatida ishlatish tuproq unumdorligini oshirishning eng samarali usullaridan biridir.

Bu jarayonda soya o'simligi gullash bosqichida (taxminan 45-60 kunlik vegetatsiya davrida) tuproqqa haydaladi. Bu usul tuproqqa organik moddalar va azot qo'shadi, shuningdek, tuproqning fizikaviy xususiyatlarini yaxshilaydi. Tosh shag'alli tuproqlarda asosiy ekinlarning qator oralarida soya o'simligini ekish tuproqning eroziyaga qarshi himoyasini kuchaytiradi. Masalan, paxta yoki makkajo'xori qatorlari orasiga soya ekish tuproqni soyabon sifatida qoplaydi va suvning bug'lanishini kamaytiradi.

Farg'ona viloyatining iqlim sharoitlariga mos soya navlarini tanlash muhimdir. Masalan, "Uzbek-6" yoki "Orzu" kabi mahalliy navlar tosh shag'alli tuproqlarda yaxshi natija beradi.

Ekishdan oldin tuproqni chuqur shudgorlash va organik o'g'itlar (go'ng yoki kompost) qo'shish soya o'simligining o'sishi va azot fiksatsiyasi samaradorligini oshiradi. Farg'ona viloyatida olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, soya o'simligini almashlab ekish tizimida qo'llash tuproqda azot miqdorini 20-30% ga oshiradi. Masalan, O'zbekiston Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan olib borilgan sinovlarda, soya ekilgan maydonlarda keyingi yilda paxta hosildorligi 15-20% ga oshgani aniqlangan.

Tajribada sinov maydonlarida urug'ning unib chiqishi(2024)

T/r	Fermer xo'jaligi va nav nomi	Unib chiqdi, sana.	2-3 Barg hosil bo'lish, sana	Shonalash, sana.	Gullash, sana.	Dukkaklash, sana	To'la pishish, sana	O'suv davri, kun
1	"Nurmatov Rahmatjon" fermer xo'jaligi To'maris-MAN-60 navi	22.apr	28.apr	16.may	25.may	07.iyun	08.sen	144
2	"Nurmatov Rahmatjon" fermer xo'jaligi Oyjamol navi	24.apr	30.apr	17.may	26.may	08.iyun	09.sen	144

Tajriba sinov maydonida yetishtirilgan soya navlarining iqtisodiy samaradorligi.

T/r	Fermer xo'jaligi va nav nomi	Hosildorlik, s/ga	Hosilni yetishtirish uchun qilingan harajatlار, so' m/ga	Soya navini sotishdan kelgan daromad, s o' m/ga	Sof foyda, so' m/ga	Tannarx, so' m/kg	Rentabellik, %
1	"Nurmatov Rahmatjon" fermer xo'jaligi To'maris-MAN-60 navi	16,9	7230000	10985000	3755000	4278,1	51,9
2	"Nurmatov Rahmatjon" fermer xo'jaligi Oyjamol navi	20,4	7170000	13260000	6090000	3514,4	84,9

Shuningdek, soya o'simligining yashil o'g'it sifatida ishlatilishi tuproqning organik moddalar miqdorini 0,5-1% ga oshirishi mumkin. Soya o'simligini tosh shag'alli tuproqlarda qo'llash nafaqat tuproq unumdorligini oshiradi, balki bir qator ekologik va iqtisodiy afzalliklarni ham beradi. Kimyoviy o'g'itlarga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish orqali tuproq va suv resurslarining ifloslanishi oldi olinadi. Soya o'simligining eroziyaga qarshi ta'siri tuproqning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi. Farg'ona viloyatining tosh shag'alli tuproqlarida soya o'simligidan

foydalanish tuproq unumdorligini oshirishning samarali va ekologik toza usuli hisoblanadi.

Soya o'simligining azot fiksatsiyasi, organik moddalar qo'shishi va tuproq tuzilishini yaxshilash xususiyatlari ushbu hududda qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Soya o'simligini almashlab ekish tizimida muntazam ravishda qo'llash. Yashil o'g'it sifatida soya o'simligidan foydalanishni kengaytirish. Mahalliy iqlim va tuproq sharoitlariga mos soya navlarini tanlash. Tuproq tayyorlashda organik o'g'itlardan foydalanish va sug'orish tizimlarini optimallashtirish. Soya o'simligi o'zi ham qimmatbaho ekin bo'lib, uning urug'lari oziq-ovqat va yem sanoatida ishlatiladi. Shu bilan birga, tuproq unumdorligining oshishi fermerlarning daromadini ko'paytiradi.

Xulosa

Farg'ona viloyatidagi tosh shag'alli tuproqlarning mahsuldorligini soya o'simligi (*Glycine max*) orqali yuksaltirish qishloq xo'jaligi rivoji uchun iqtisodiy va ekologik jihatdan samarali strategiyadir. Soya o'simligi tuproqqa azot yig'ish, organik tarkibni ko'paytirish, tuproq sifatini yaxshilash va eroziyani kamaytirish kabi foydali xususiyatlarga ega. Viloyatning iqlim sharoitlariga mos ravishda soya o'simligini almashlab ekish, yashil o'g'it sifatida ishlatish yoki qator oralarida yetishtirish tuproqning barqaror unumdorligini ta'minlaydi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, soya tuproq azotini 20-30% ga boyitadi va paxta hosilini 15-20% ga oshiradi. Bu usul kimyoviy o'g'itlarga ehtiyojni kamaytirib, atrof-muhitni asraydi va fermerlar daromadini oshiradi. Soya o'simligining keng qo'llanilishi Farg'ona viloyatida tuproq resurslarini samarali boshqarish va qishloq xo'jaligining uzoq muddatli rivojlanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev, Sh. X., & Xo‘jayev, A. T. (2020). O‘zbekiston tuproqlari va ularning unumdorligini oshirish usullari. Toshkent: Fan va Texnologiya Nashriyoti.
2. Ismoilov, M. R. (2018). Dukkakli ekinlarning tuproq unumdorligiga ta’siri. Farg‘ona: Farg‘ona Davlat Universiteti Ilmiy Jurnali, 12(3), 45-52.
3. Qodirov, Z. A., & Rahmonov, B. S. (2022). Farg‘ona viloyati tuproqlarining agroekologik xususiyatlari va ularni yaxshilash yo‘llari. Toshkent: Qishloq Xo‘jaligi Ilmiy-Tadqiqot Instituti.
4. Sobirov, U. B. (2019). Soya o‘simligining O‘zbekiston sharoitida qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati. Agrar Fanlar Jurnali, 8(2), 33-39.
- Food and Agriculture Organization (FAO). (2021). Soil Fertility Management in Support of Food Security in Sub-Saharan Africa. Rome: FAO Publications.
5. Xolmurodov, E. A. (2023). Tuproq eroziyasiga qarshi kurashda dukkakli ekinlarning o‘rni. Farg‘ona: Ilmiy-Tadqiqot Markazi Nashriyoti.
- 6.<http://www.doklad.ru>
- 7.<http://www.bio.pu.ru>
- 8.<http://www.zona.ru>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670334>

TOKSIK SO‘ZLARNI ANIQLASH UCHUN MASHINALI O‘QITISH ALGORITMLARINI TANLASH

Sulaymonova Fozila Mo‘minjon qizi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti 1-kurs tayanch doktoranti

Sulaymonovaf24@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada zararli so‘zlarni aniqlashda foydalaniladigan turli mashinaviy o‘qitish (ML – machine learning) va chuqur o‘qitish (DL – deep learning) modellari o‘rganildi hamda ularning samaradorligini solishtirildi. Bu modellar tahdid, nafrat so‘zlari, kiberbulling va haqoratli iboralarini samarali aniqlay oladi. Maqolada quyidagi turli tabiiy tilni qayta ishlash (NLP – natural language processing) texnologiyalarini taqqoslanadi: LSTM, CNN, Naiv Bayes, SVM singari chuqur o‘qitish algoritmlari hamda qoida asosida kalit so‘zlar orqali aniqlash (rule-based keyword detection) yondashuvi. Olingan eksperiment natijalari matnlardan nomaqbul so‘zlarni aniqlash va toksik izohlarni filtrdan o‘tkazishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: tabiiy tilni qayta ishlash, ML va DL modellar, LSTM, CNN, Naiv Bayes, SVM, matnni tasniflash.

Annotation: This article explores various machine learning (ML) and deep learning (DL) models used for detecting harmful language, and compares their effectiveness. These models are capable of accurately identifying threats, hate speech, cyberbullying, and offensive expressions. The article compares different natural language processing (NLP) technologies, including deep learning algorithms such as LSTM, CNN, Naive Bayes, and SVM, as well as the rule-based keyword detection approach. The experimental results demonstrate the usefulness of these methods for detecting inappropriate language in texts and filtering toxic comments.

Keywords: natural language processing, ML and DL models, LSTM, CNN, Naive Bayes, SVM, text classification.

KIRISH.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi zamonaviy insonlar o‘rtasidagi muloqot va fikr almashuv uslublarini tubdan o‘zgartirib yubordi. Turli xil raqamli platformalar — ijtimoiy tarmoqlar, videoaloqa va yig‘ilish ilovalari,

xabar almashish vositalari — foydalanuvchilar o'rtasida bog'lanishning muhim markazlariga aylandi. Biroq, ushbu onlayn muloqot platformalarining kengayishi bilan bir qatorda, so'kinish so'zlari, haqoratli iboralar, trolling va kiberbulling kabi zararli xatti-harakatlar ham ko'paymoqda [1]. Bunday salbiy izohlar muloqot jarayonlarini izdan chiqaradi, foydalanuvchilarda kuchli emotsional bosim va salbiy psixologik hamda ijtimoiy oqibatlarni yuzaga keltiradi. Zararli kontentlarning ortib borayotgan hajmi tufayli, ushbu xatti-harakatlarni aniqlashga qaratilgan zamonaviy tizimlarni joriy qilish zaruratga aylandi. Dastlabki yillarda bunday kontentlarni aniqlash an'anaviy mashinaviy o'qitish modellariga va qoida asosidagi yondashuvlarga tayangan. Biroq, ushbu uslublar foydalanuvchilar so'zlarni buzib yozishi, yangi jargonlar (slang) va noto'g'ri imlolardan foydalanishi natijasida filtrlardan osonlik bilan chetlab o'tilgan holatlarda samarasiz bo'lib chiqmoqda.

So'nggi yillarda tabiiy tilni qayta ishlash (NLP) va mashinaviy o'qitish sohasidagi yutuqlar ushbu muammoni samarali hal qilish uchun yangi vositalarni taqdim etdi. Hozirgi ilmiy izlanishlar chuqur o'qitishga asoslangan modellar, xususan, transformer arxitekturasida asosidagi yondashuvlar toksik izohlarni aniqlashda yuqori aniqlikni ta'minlashini ko'rsatmoqda [3]. Turli modellarni baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, Support Vektor Mashinasi (SVM), Naiv Bayes (NB) va XGBoost algoritmlari toksik kontentni aniqlashda yuqori salohiyatga ega [6][7]. Ingliz tilidagi kichik til elementlarini qayta ishlashda BERT va uning variantlari, hamda boshqa transformer modellarining samaradorligi alohida ajralib turadi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqdagi tvitlar bazasida oldindan o'qitilgan BERTweet modeli toksiklikni aniqlashda eng yuqori ko'rsatkichlarga erishgan [8]. Shu bilan birga, Random Forest va Logistik Regression modellarining hisoblash resurslariga nisbatan kam ehtiyoj sezishi ularni resurslar cheklangan muhitlarda ham qo'llash imkonini beradi [9]. Ushbu tadqiqot zamonaviy NLP texnologiyalari bilan innovatsion chuqur o'qitish arxitekturalarini birlashtirgan yangi freymvorkni ishlab chiqadi. Taklif etilgan tizim toksik izohlarni aniq va barqaror aniqlashni, shuningdek, turli onlayn platformalarda ishonchli ishlashni maqsad qiladi. Tizim tilshunoslik tahlili, kontekstual va hissiy xususiyatlarni uyg'unlashtirish orqali raqamli muhitdagi zararli muloqotni aniqlash va oldini olishga qaratilgan kompleks yondashuvni taqdim etadi. Ilgari olib borilgan tadqiqotlar ushbu ishga asos bo'lgan bo'lib, ularning aksariyati GloVe va FastText kabi so'z ifodalaridan (embedding) foydalangan hamda diqqat (attention) mexanizmlari yordamida matndagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash imkoniyatlarini o'rgangan [10]. Ushbu tadqiqot zamonaviy tabiiy tilni qayta ishlash va chuqur o'qitish texnologiyalarini birlashtirish orqali aniq va ishonchli tizimni ishlab chiqishga qaratilgan bo'lib, u onlayn suhbatlar va boshqa raqamli platformalardagi toksiklikni aniqlaydi va har bir foydalanuvchi uchun xavfsiz onlayn makonni ta'minlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA.

Ijtimoiy tarmoqlarning keskin rivojlanishi odamlar o'rtasidagi muloqot shakllarini o'zgartirdi, biroq shu bilan birga zararli onlayn izohlar sonining oshishiga ham sabab bo'ldi. Toksik kontentni aniqlash dolzarb muammoga aylangan, chunki bunday izohlar jiddiy psixologik salbiy oqibatlar, jamiyatda tajovuzkor munosabatlar va kiberbulling holatlariga olib keladi [11]. So'nggi yillarda onlayn maydonlarda zararli kontent tarqalishining kuchayishi sababli toksik izohlarni aniqlash tizimlariga bo'lgan ilmiy qiziqish kuchaydi. Dastlabki tadqiqotlar odatda qoidaga asoslangan (rule-based) va lug'atga asoslangan (lexicon-based) yondashuvlardan foydalangan bo'lib, bu usullar oldindan belgilangan haqoratli so'zlar ro'yxati va qo'lda yozilgan aniqlash qoidalariga tayanadi [12]. Biroq, bu usullar yangi yoki yashirin qonuniyatlarni aniqlashda samarasiz bo'lib chiqdi, ayniqsa foydalanuvchilar til unsurlarini o'zgartirish orqali tizimni aldashga harakat qilganda, bu yondashuvlar amaliy foydalanish uchun yaroqsiz bo'lib qoladi [13]. Matnni tasniflashga oid keyingi izlanishlarda mashinaviy o'qitish modellaridan, jumladan, Support Vektor Mashinasi (SVM), Naiv Bayes (NB) va Random Forest (RF) algoritmlaridan foydalanildi [13]. Ushbu algoritmlar, odatda, TF-IDF va n-gram asosidagi qo'lda ishlab chiqilgan xususiyatlar orqali ishlaydi. Ushbu metodlar ba'zi muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsa-da, ular matndagi kontekstual ma'noni yetarlicha aniqlay olmagan [3][7]. Chuqur o'qitish (DL) texnologiyalari rivojlanishi bilan, tadqiqotchilar toksik izohlarni aniqlashda neyron tarmoqlarga asoslangan modellarni ishlab chiqishni boshladilar. RNN (Recurrent Neural Network) va LSTM (Long Short-Term Memory) tarmoqlari matnli ketma-ketliklarni tahlil qilishda foydali bo'lib, model samaradorligini oshirgan [14]. Biroq, ushbu modellar uzoq ketma-ketliklarni qayta ishlashda ko'p hisoblash resurslarini talab qilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, BERT va uning modifikatsiyalari (transformerga asoslangan modellar) toksik izohlarni tasniflashda yuqori natijalarga erishgan. BERT kontekstual so'z ifodalarini (embeddings) ishlab chiqadi, bu esa so'zlarning turli kontekstlardagi chuqur ma'nolarini tushunishga yordam beradi, ayniqsa murakkab toksik nutqni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Turli mezonlar asosida o'tkazilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, BERT asosidagi modellar an'anaviy va chuqur o'qitishga asoslangan modellar bilan solishtirganda yuqori natijalar beradi [15]. Ba'zi tadqiqotlar chuqur va mashinaviy o'qitish yondashuvlarini birlashtirgan modellarni ishlab chiqdilar. Masalan, CNN (Konvolyutsion Neyron Tarmoq) va LSTM ni uyg'unlashtirish orqali matnni tasniflash natijalari yaxshilangan. Ensemble (ansambl) yondashuvlari bir nechta klassifikatorlarni birlashtirish orqali turli modellarning kuchli tomonlaridan maksimal darajada foydalanishga imkon beradi va bu yondashuv aniqlikni oshiradi [3]. Shuningdek, real vaqt rejimida ishlashga mo'ljallangan yengil modellar ishlab

chiqilgan. Tadqiqotchilar bilim distillatsiyasi (knowledge distillation) va modelni qisqartirish (pruning) texnologiyalaridan foydalanib, hisoblash resurslarini kamaytirgan holda model aniqligini saqlab qolishga erishgan [10]. Federativ o'qitish (federated learning) esa foydalanuvchi ma'lumotlarini maxfiy saqlagan holda turli platformalarda toksiklikni aniqlash imkonini beradi [3]. So'nggi izlanishlarda tadqiqotchilar klassifikatorlarning adolatlilik darajasi va bias (noxolislik)ni kamaytirish usullarini ham o'rgangan, bu esa ijtimoiy guruhlarini diskriminatsiyadan himoya qilishda muhim [14]. Diqqat mexanizmlariga asoslangan modellar, jumladan ALBERT va DistilBERT, toksik izohlarni aniqlash vazifasida aniqlikdan voz kechmagan holda samarador ishlashni ta'minlaydi. GAN (Generative Adversarial Network) modellaridan foydalanish orqali sun'iy toksik matnlar yaratish va ularni mashq ma'lumotlari sifatida ishlatish tajribalari ham olib borilgan [16]. Bugungi kunda toksik izohlarni aniqlash sohasida ko'plab tadqiqotlar ko'p tilli (multilingual) modellar — masalan, mBERT va XLM-R — yordamida turli tillardagi toksik nutqni aniqlash yo'nalishida olib borilmoqda [3]. Shuningdek, giperparametrlarni moslashtirish va ansambl modellardan foydalanish aniqlikni sezilarli darajada oshirishi isbotlangan. Naiv Bayes, SVM va XGBoost kabi modellarni birlashtirish orqali ularning kamchiliklarini o'zaro to'ldirish va kuchli tomonlarini uyg'unlashtirish mumkin. Ushbu yondashuv ayniqsa toksiklikka oid notekis taqsimlangan (imbalanced) ma'lumotlar to'plamlarida samarali ishlaydi [8]. Bundan tashqari, tadqiqotlar sentiment (kayfiyat) tahlili bilan toksiklikni aniqlash o'rtasidagi bog'liqlikni ham o'rgangan, ya'ni matndagi hissiy holatni hisobga olish toksik kontentni aniqlash aniqligini oshirishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Ushbu tadqiqot onlayn izohlardan toksik kontentni aniqlash uchun tabiiy tilni qayta ishlash (NLP), chuqur o'qitish (DL) texnologiyalari va kalit so'zga asoslangan qoidaviy aniqlash tizimlarini taqqoslovchi tahlil asosida o'rganadi. Tadqiqotda turli modellar samaradorligi va ularning masshtablanuvchanligini baholash maqsadida **Jigsaw Toxic Comment Classification** to'plami (dataseti) standart benchmark sifatida qo'llanilgan.

A. Ma'lumotlarni tayyorlash. **Jigsaw Toxic Comment Classification** to'plami toksik izohlarni aniqlash bo'yicha asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ushbu to'plam Jigsaw kompaniyasi tomonidan e'lon qilingan toksiklikni aniqlash bo'yicha musobaqa doirasida yaratilgan bo'lib, NLP sohasida keng qo'llaniladi. Ma'lumotlar to'plamida izohlar bir nechta zararli kontent turlari bo'yicha belgilangan: umumiy toksiklik, kuchli toksiklik, haqorat, tahdid, kamsitish va shaxsiyatga asoslangan nafrat. Ushbu matnli ma'lumotlar mashinaviy va chuqur o'qitish modellarini toksiklikka qarshi o'rgatish uchun asosiy manba hisoblanadi.

B. *Ma'lumotlarni tozalash va oldindan ishlov berish.* Matnni tasniflash modellarining ishlash samaradorligini oshirishda ma'lumotlarni to'g'ri oldindan ishlov berish (preprocessing) muhim ahamiyatga ega. Quyidagi bosqichlar modelni o'rgatish uchun kerakli darajada toza, bir xil va samarali matnlar tayyorlashga xizmat qiladi:

- **Tokenizatsiya** – matnni so'z yoki kichik birliklarga ajratish. Bu ML modellariga mos formatga aylantirishga yordam beradi.
- **Keraksiz belgilarni olib tashlash** – regex (muntazam ifoda) andozalari yordamida maxsus belgilar, emoji, URL va HTML teglar o'chirib tashlanadi, chunki bular foydalanuvchi yozgan matnlarda shovqin (noise) hosil qiladi.
- **Normallashtirish** – barcha matnlar kichik harflarga aylantiriladi. Stop-so'zlar olib tashlanadi, toksik tildagi noto'g'ri yozilgan yoki o'zgaruvchan shakllar tuzatiladi, qisqartmalar to'liq shaklga kengaytiriladi (masalan, "don't" → "do not").
- **Lemmatizatsiya** – NLTK kutubxonasidagi WordNet Lemmatizer vositasi orqali so'zlar dastlabki (leksik) shakliga keltiriladi.
- **Toksiklikka mos lug'atlar tuzish** – zararli matnlarni aniqlash uchun maxsus toksik ifodalarga mos lug'atlar ishlab chiqiladi.

C. *Xususiyatlarni ajratish (Feature Extraction).* Matnni raqamli formatga o'tkazish uchun quyidagi texnologiyalar qo'llaniladi, ular toksik strukturalarni aniqlash va tasniflash aniqligini oshirishga xizmat qiladi:

- **TF-IDF vektorizatsiyasi** – Term Frequency-Inverse Document Frequency (TF-IDF) matnni raqamli vektorlarga aylantirishda qo'llaniladi. 1000 so'zdan iborat lug'at asosida toksik so'zlar aniqlanadi va ularning takrorlanishi kuzatiladi.
- **Tokenizatsiya va paddlash** – chuqur o'qitish modellariga mos ravishda matn ketma-ketliklarini tayyorlash uchun qo'llaniladi.
- **GloVe va FastText** – oldindan o'qitilgan so'z birikmalari bo'lib, ular so'zlarning kontekstual ma'nosini tutib qolishga yordam beradi.

D. *Modellarni o'rgatish va baholash.* Toksik izohlarni samarali tasniflash modellarini yaratish uchun turli ML va DL modellar o'qitiladi. Ularning ishlashini baholashda bir nechta mezonlar qo'llaniladi.

Mashinaviy o'qitish modellari. Ushbu modellar TF-IDF bilan raqamlashtirilgan matn asosida o'qitiladi:

- **Naiv Bayes (Complement NB):** matnni tasniflashda yaxshi ishlaydi, ayniqsa muvozanatsiz (imbalanced) to'plamlar uchun mos.
- **Support Vektor Mashinasi (SVM):** toksik va toksik bo'lmagan izohlarni farqlovchi chegaralarni aniqlaydi va matn tasnifida samarali ishlaydi.
- **Logistik regressiya:** toksik ehtimollarni hisoblashda asosiy prognozlovchi sifatida ishlatiladi.

Ushbu modellar uchun aniqlik, aniq (precision), chaqiruv (recall) va F1-ko'rsatkich kabi baholash mezonlari qayd etiladi.

Kalit so'zga asoslangan qoidaviy model. Ushbu model toksik so'z va iboralar lug'atiga asoslangan. Masalan, "stupid", "idiot", "hate" kabi ifodalar mavjud bo'lsa, izoh toksik deb belgilanadi. Bu usul aniq toksiklikni yaxshi aniqlasa-da, yashirin ma'no va kinoyani aniqlashda qiynaladi [17].

E. Chuqur o'qitish modellar. DL modellar tokenizatsiya qilingan ketma-ketliklar va so'z birikmalar yordamida o'qitiladi:

- **Konvolyutsion Neyron Tarmoq (CNN): Embedding layer:** so'zlarni zich (dense) raqamli ifodaga aylantiradi; **1D Convolutional layer:** matn ketma-ketligidan ahamiyatli xususiyatlarni ajratib oladi; **to'liq ulanadigan qatlamlar:** ReLU faollashtirish funksiyasiga ega zich qatlam, normallashtirish uchun dropout bilan; **Chiqarish qatlam:** Sigmoid faollashtirishga ega bitta neyronli qatlam, toksik/toksik emas klassifikatsiyasi uchun. Model Adam optimizatori yordamida binary cross-entropy yo'qotish funksiyasi asosida, batch size = 32 va 7 epoch davomida o'qitiladi.

- (Long Short-Term Memory) LSTM, LSTM + GloVe: Embedding layer – so'zlarni vektorga aylantiradi; LSTM layer – ketma-ketlikdagi bog'liqlikni o'rganadi; Fully connected (Dense) layer - ReLU faollashtirish funksiyasiga ega ichki qatlam, non-linearlik qo'shadi; Output layer – Softmax faollashtirishga ega, klas ehtimolliklarini beradi. Model batch size = 32, 64, 128 va 5-10 epoch davomida o'qitiladi.

F. Modelni baholash mezonlari. Har bir toksiklik sinfini chuqur tahlil qilish uchun quyidagi baholash mezonlari qo'llaniladi:

- **Aniqlik (Accuracy):** to'g'ri klassifikatsiya qilingan holatlar (ijobiy va salbiy) sonining umumiy namunalar soniga nisbati. Ammo muvozanatsiz sinflarda bu ko'rsatkich noto'g'ri tasavvur uyg'otishi mumkin.
- **Aniqlovchanlik (Precision):** model tomonidan toksik deb belgilanib, aslida ham toksik bo'lgan izohlar ulushi.
- **Chaqiruv (Recall):** asl toksik izohlarning qancha qismi model tomonidan aniqlanganini ko'rsatadi.
- **F1 ko'rsatkich:** aniqlik va chaqiruv o'rtasidagi muvozanatni hisobga oluvchi ko'rsatkich. Ayniqsa muvozanatsiz to'plamlarda samarali.
- **ROC-AUC:** turli thresholdlarda haqiqiy ijobiy va soxta ijobiy holatlar grafigi asosida modelning ajratuvchanlik qobiliyatini o'lchaydi.
- **Confusion matrix (aralashuv jadvali):** haqiqiy ijobiy, soxta ijobiy, haqiqiy salbiy va soxta salbiy natijalarni ko'rsatadi.
- **Precision-Recall Curve:** ayniqsa muvozanatsiz to'plamlarda foydali bo'lib, aniqlik va chaqiruv o'zgarishini threshold bo'yicha ko'rsatadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA.

Ushbu bo'limda toksik izohlarni tasniflash uchun mashinaviy o'qitish (ML) va chuqur o'qitish (DL) modellaridan foydalangan holda o'tkazilgan eksperiment natijalari keltirilgan. Modellar quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholandi: **aniqlik (accuracy)**, **F1 ko'rsatkich**, **aniqlik darajasi (precision)** va **chaqiruv (recall)**.


Model samaradorligini taqqoslash. Turli yondashuvlarning samaradorligini aniqlash maqsadida quyidagi modellar o'qitildi va baholandi: **Logistik regressiya**, **SVM**, **Complement Naive Bayes**, **CNN**, **LSTM**, **LSTM + GloVe** hamda **Kalit so'zga asoslangan model**. 1-jadvalda toksik izohlarni tasniflash vazifasida ushbu modellar uchun o'lchov ko'rsatkichlari keltirilgan:

1-jadval. Modellarning ish samaradorligini solishtirish jadvali:

Modellar	Baholash mezonlari			
	Aniqlik	F1 ko'rsatkich	Precision	Recall
Complement NB	0.876	0.876	0.876	0.876
SVM	0.953	0.698	0.909	0.566
Logistik regressiya	0.952	0.694	0.899	0.565
Kalit so'zga asoslangan model	0.890	0.315	0.394	0.394
CNN	0.955	0.746	0.828	0.680
LSTM	0.885	0.907	0.890	0.925
LSTM + GloVe	0.904	0.914	0.887	0.943


- **CNN modeli** umumiy baholash bo'yicha eng yuqori natijalarni ko'rsatdi: **aniqlik (0.955)** va **F1 ko'rsatkich (0.746)**. Bu model aniqlik va chaqiruv o'rtasida samarali muvozanatga erisha olganligini ko'rsatadi [4][5].
- **SVM** va **Logistik regressiya** modellarining aniqligi yuqori bo'lsa-da, chaqiruv ko'rsatkichlari nisbatan pastroq. Bu esa ayrim toksik izohlarni aniqlay olmasligi mumkinligini bildiradi.
- **LSTM modeli CNN modelidan biroz pastroq natija ko'rsatdi:** aniqlik (accuracy) 0.885, F1 ko'rsatkichi 0.907. Bu muvozanat yaxshi va model har ikkala ko'rsatkichni ham yuqori darajada ushlab turmoqda [2].

- **LSTM + GloVe modeli LSTM modelini o'zini ishlatilgandagidan yuqori natija beradi, biroq CNN modelidan kam:** aniqlik (accuracy) 0.904, F1 ko'rsatkichi 0.914. Bu ko'rsatkichlar modellarning samarali ishlashini bildiradi [2].
- **Kalit so'zga asoslangan model** barcha baholash mezonlari bo'yicha eng past natijalarni ko'rsatdi. Bu model toksik ifodalarni aniqlashdagi murakkabliklarni samarali yengib o'ta olmaganini anglatadi.
- **Complement NB modeli** esa yuqori **chaqiruv (0.805)** ko'rsatkichini namoyon etgan bo'lsa-da, uning **aniqlik darajasi (0.424)** past bo'lib, bu model ko'p sonli soxta ijobiy (false positive) natijalarni qayd etganini bildiradi [18].




1-rasm: Modellar bo'yicha aniqlik (accuracy) taqqoslash

CNN, SVM va Logistik regressiya modellarining aniqlik ko'rsatkichlari eng yuqori bo'lgan, bu esa ularning toksik kontentni aniqlashdagi kuchli klassifikatsiya qobiliyatini ko'rsatadi. **Complement NB modeli** esa eng past aniqlikka ega bo'lgan.




2-rasm: Modellar bo'yicha F1 ko'rsatkich taqqoslash

F1 ko'rsatkich — aniqlik va chaqiruv o'rtasidagi muvozanatni ifodalovchi asosiy mezonidir. LSTM va LSTM+GloVe modeli boshqa modellar bilan solishtirganda yuqori F1 ko'rsatkichini namoyish etgan. Bu model **soxta ijobiy** (false positives) va **soxta salbiy** (false negatives) xatolarini kamaytirish imkoniga ega. Kalit so'z modeli esa F1 bo'yicha eng past ko'rsatkichga ega bo'lib, bu uning aniqlik darajasi sust ekanini ko'rsatadi.



3-rasm: Modellar bo'yicha aniqlovchanlik (precision) taqqoslash

Aniqlik — model tomonidan toksik deb topilgan izohlarning nechta haqiqatan toksik bo'lganini ko'rsatadi. **Eng yuqori aniqlik (0.909)** SVM modeli tomonidan qayd etilgan, undan keyingi o'rinlarda Logistik regressiya, LSTM va LSTM+GloVe va CNN turadi. **Kalit so'zga asoslangan** modelning aniqligi past bo'lib, bu uning toksik bo'lmagan izohlarni xato tarzda toksik deb baholash ehtimolini ko'rsatadi.



4-rasm: Modellar bo'yicha chaqiruv (recall) taqqoslash

Chaqiruv — asl toksik izohlarning nechta qismi model tomonidan to'g'ri aniqlanganini bildiradi. **Complement NB** modeli **eng yuqori chaqiruv (0.805)** ko'rsatkichiga ega, bu esa uning toksik kontentni yaxshi aniqlash qobiliyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Biroq bu yuqori chaqiruv past aniqlik evaziga erishilgan bo'lib, bu ko'plab **soxta ijobiy** holatlarga olib keladi. **CNN modeli, chaqiruv (0.680)** ko'rsatkich bilan, toksik izohlarni aniqlash va noto'g'ri baholashlar sonini kamaytirishda balansli ishlashni namoyon etdi. Kalit so'z modeli esa **eng past chaqiruv (0.262)** ko'rsatkichiga ega bo'lib, bu model toksik izohlarning katta qismini aniqlay olmaganini ko'rsatadi.

Xulosa sifatida:

- **CNN** modeli barcha mezonlar bo'yicha yetakchi bo'lib, chuqur konvolyutsion qatlamlar yordamida matnning semantik (ma'nodagi) xususiyatlarini samarali ajratib olish orqali boshqa modellarni ortda qoldirgan.
- **LSTM, LSTM+GloVe modeli F1 ko'rsatkich, precision, recallda yuqori natijalarni qayd etgan bo'lsa ham, aniqlikda CNN eng samarali natijani ifodalaydi.**
- **SVM** va **Logistik regressiya** modellarining aniqligi yuqori bo'lsa-da, ular ba'zi yashirin yoki bilvosita toksik kontentni aniqlashda sustlik ko'rsatgan.
- **Complement NB** yuqori chaqiruvga erishgan bo'lsa-da, ko'plab noto'g'ri tasniflashlar bilan yuzaga kelgan va bu real vaqtli tizimlar uchun muammo tug'diradi.
- **Kalit so'z asosidagi model** kontekst va kinoyani tushuna olmaydi. Bu model tezlik talab etiladigan sharoitda boshlang'ich filtr sifatida foydali bo'lsa-da, uni albatta qo'shimcha nazorat tizimlari bilan qo'llab-quvvatlash zarur.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, toksik izohlarni aniqlashda **CNN modeli** eng maqbul yechim hisoblanadi. U aniq natijalar va ishlash barqarorligini bir vaqtda ta'minlaydi, bu esa uni real muhitlarda qo'llash uchun ayni muddao qiladi.

XULOSA.

Ushbu tadqiqot doirasida Complement Naive Bayes, SVM, Logistik regressiya, **LSTM, LSTM+GloVe**, CNN va kalit so'z asosidagi model kabi turli model Jigsaw Toxic Comment Classification to'plami asosida baholandi. Ushbu modellar toksik izohlarni aniqlash jarayonida yuzaga keladigan notekis ma'lumotlar taqsimoti va turli til shakllari kabi muammolarni yengib o'tish salohiyati bo'yicha sinovdan o'tkazildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, CNN modeli barcha asosiy baholash mezonini — aniqlik bo'yicha eng yuqori natijalarga erishdi. SVM va Logistik regressiya modellarining umumiy aniqligi yuqori bo'lsa-da, ularning chaqiruv ko'rsatkichlari past bo'lib, ayrim toksik izohlar e'tibordan chetda qolgan. Complement Naive Bayes modeli esa yuqori chaqiruv ko'rsatkichiga erishdi, ya'ni ko'p toksik izohlarni aniqladi, biroq bu yuqori soxta ijobiy xatolar evaziga yuz berdi. Eng past samaradorlik kalit so'z

asosidagi modelda kuzatildi, chunki u yashirin (implicit) yoki kinoyali toksiklikni aniqlay olmadi. Bu model faqat oddiy holatlardagi aniq toksik ifodalarni aniqlay oladi va faqat yordamchi filtr sifatida qo'llanishi mumkin. **LSTM, LSTM+GloVe modellarining yuqorida berilgan ko'rsatkichlari batch size = 64 bo'lgandagi natijalar bo'lib, qo'shimcha xotira talab qiladi. Boshqa modellar bilan bir xil ya'ni batch size = 32 bo'lganda samarali natija bermaydi.** Umuman olganda, **batch size = 32 bo'lganda CNN modeli, batch size = 64 bo'lganda esa LSTM, LSTM+GloVe modellari** toksik izohlarni aniqlash vazifasida eng ishonchli tizim sifatida o'zini ko'rsatdi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

- [1]. J. Risch and R. Krestel, "Toxic comment detection in online discussions," Deep learningbased approaches for sentiment analysis, pp. 85– 109, 2020.
- [2]. Nur 'Aqilah Aminuddin, Taniza Tajuddin, Sofianita Mutalib, Siti Rafidah Muhamat Dawam, Noor Rasidah Ali, Mazura Mat Din. "DEEP LEARNING-BASED CLASSIFICATION OF TOXIC ONLINE COMMENTS USING LONG SHORT-TERM MEMORY (LSTM) FOR SENTIMENT ANALYSIS", in Journal of information system and technology management: Volume 9, issue 37, pp 352-368, December 2024.
- [3]. M. Mozafari, R. Farahbakhsh, and N. Crespi, "A bert-based transfer learning approach for hate speech detection in online social media," in Complex Networks and Their Applications VIII: Volume 1 Proceedings of the Eighth International Conference on Complex Networks and Their Applications COMPLEX NETWORKS 2019 8, pp. 928–940, Springer, 2020.
- [4]. S. V. Georgakopoulos, S. K. Tasoulis, A. G. Vrahatis, and V. P. Plagianakos, "Convolutional neural networks for toxic comment classification," in Proceedings of the 10th hellenic conference on artificial intelligence, pp. 1–6, 2018.
- [5]. M. I. Pavel, R. Razzak, K. Sengupta, M. D. K. Niloy, M. B. Muqith, and S. Y. Tan, "Toxic comment classification implementing cnn combining word embedding technique," in Inventive Computation and Information Technologies: Proceedings of ICICIT 2020, pp. 897–909, Springer, 2021.
- [6]. M. Zampieri, S. Malmasi, P. Nakov, S. Rosenthal, N. Farra, and R. Kumar, "Predicting the type and target of offensive posts in social media," arXiv preprint arXiv:1902.09666, 2019.
- [7]. D. Patel, P. K. D. Pramanik, C. Suryawanshi, and P. Pareek, "Detecting toxic comments on social media: an extensive evaluation of machine learning techniques," Journal of Computational Social Science, vol. 8, no. 1, pp. 1–18, 2025.

[8]. A. Bonetti, M. Mart'inez-Sober, J. C. Torres, J. M. Vega, S. Pellerin, and J. Vila-Frances, "Comparison between machine learning and deep learning approaches for the detection of toxic comments on social networks," *Applied Sciences*, vol. 13, no. 10, p. 6038, 2023.

[9]. D. Q. Nguyen, T. Vu, and A. T. Nguyen, "Bertweet: A pre-trained language model for English tweets," *arXiv preprint arXiv:2005.10200*, 2020.

[10]. J. Pennington, R. Socher, and C. D. Manning, "Glove: Global vectors for word representation," in *Proceedings of the 2014 conference on empirical methods in natural language processing (EMNLP)*, pp. 1532–1543, 2014.

[11]. A. Singh, D. Sharma, and V. K. Singh, "Misogynistic attitude detection in youtube comments and replies: A high-quality dataset and algorithmic models," *Computer Speech & Language*, vol. 89, p. 101682, 2025.

[12]. H. Kajla, J. Hooda, G. Saini, et al., "Classification of online toxic comments using machine learning algorithms," in *2020 4th international conference on intelligent computing and control systems (ICICCS)*, pp. 1119–1123, IEEE, 2020.

[13]. Z. Zhang, D. Robinson, and J. Tepper, "Detecting hate speech on twitter using a convolution-gru based deep neural network," in *European semantic web conference*, pp. 745–760, Springer, 2018.

[14]. P. Badjatiya, S. Gupta, M. Gupta, and V. Varma, "Deep learning for hate speech detection in tweets," in *Proceedings of the 26th international conference on World Wide Web companion*, pp. 759–760, 2017.

[15]. J. Devlin, M.-W. Chang, K. Lee, and K. Toutanova, "Bert: Pre-training of deep bidirectional transformers for language understanding," in *Proceedings of the 2019 conference of the North American chapter of the association for computational linguistics: human language technologies, volume 1 (long and short papers)*, pp. 4171–4186, 2019.

[16]. S. Carta, A. Corrigan, R. Mulas, D. R. Recupero, and R. Saia, "A supervised multi-class multilabel word embeddings approach for toxic comment classification," in *KDIR*, pp. 105–112, 2019.

[17]. M. W. Al Nabki, E. Fidalgo, E. Alegre, and I. De Paz, "Classifying illegal activities on tor network based on web textual contents," in *Proceedings of the 15th Conference of the European Chapter of the Association for Computational Linguistics: Volume 1, Long Papers*, pp. 35–43, 2017.

[18]. A. Schmidt and M. Wiegand, "A survey on hate speech detection using natural language processing," in *Proceedings of the fifth international workshop on natural language processing for social media*, pp. 1–10, 2017.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670344>

PREVALENCE OF NODULAR GOITER AMONG THE POPULATION OF THE SAMARKAND REGION

Negmatova Gulzoda Shukhratovna

Samarkand State Medical University, PhD, Associate Professor of the Department of
Endocrinology, Republic of Uzbekistan, Samarkand

Salimova Dildora Erkinovna

Samarkand State Medical University, Assistant of the Department of Endocrinology,
Republic of Uzbekistan, Samarkand

Makhmudova Intizor Abdurauf qizi

Samarkand State Medical University, Student of the Faculty of general medicine,
Republic of Uzbekistan, Samarkand

ABSTRACT

This paper examines the prevalence of nodular goiter in the Samarkand region. The current state and factors influencing the development of nodular goiter in iodine-deficient zones are analyzed.

Keywords: *nodular goiter, solitary goiter, conglomerate goiter, subclinical hypothyroidism, manifest hypothyroidism.*

Introduction

Nodular goiter develops as a result of enlargement of the thyroid gland for various reasons. Usually such enlargement occurs due to the formation of nodules in the thyroid gland. Such nodular formations can be single or multiple.

According to WHO, approximately 200 million people worldwide suffer from euthyroid nodular goiter. In general, according to various estimates, up to 50% of the adult population may have thyroid nodules, and in 2024, the total number of patients in the Samarkand region was 306 patients.

The aim of the study: to study the prevalence of thyroid nodules in the Samarkand region based on patient visits to the outpatient clinic of the Republican Specialized Scientific and Practical Medical Center of Endocrinology named after Academician Y.Kh. Turakulov in 2024.

Materials and methods of the study: outpatient cards of 60 patients who visited the clinic in 2024 and were diagnosed with nodular or multinodular goiter were studied. All patients underwent thyroid ultrasound and thyroid hormones free T4 and pituitary hormone TSH were tested.

Results: during examination of thyroid function, the average level of TSH was 3.2 ± 3.6 μ IU/ml, free T4 15.3 ± 15.8 pmol/l. 70% (42) of patients were euthyroid (TSH 1.4 ± 2.9), 18% (11) had subclinical hypothyroidism (TSH 5.5 ± 6.7), 11.6% (7) had manifest hypothyroidism (TSH 8.2 ± 9.4).

Conclusions: In 42 patients examined with thyroid nodules who sought consultation, there was a thyroid dysfunction in the form of euthyroidism, 11 patients had subclinical hypothyroidism, and 7 patients had manifest hypothyroidism.

References:

1. Alisherovna, K. M., Erkinovna, S. D., Duskobilovich, B. S., & Samandarovich, T. H. (2024). ARTERIAL HYPERTENSION IN THYROTOXICOSIS AND REMODELING OF THE LEFT VENTRICLE OF THE HEART. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 19(4), 114-121.
2. Gulzoda Shuxratovna Negmatova, Dildora Erkinovna Salimova(2023).Qandli diabet 2-tipning arterial gipertenziya bilan birgalikda kechish xususiyatlari va ularni davolash usullari. Science and Education,4(2),516-519
3. Alimova, N.B., Davranova , A.D. and Togayeva, G.S. 2024. DIABETIK KARDIOMIOPATIIYASI BO'LGAN BOLALARNI DAVOLASHDA KARDIOPROTEKTOR DORILARNING SAMARADOLIGINI BAHOLASH. Educational Research in Universal Sciences. 3, 1 SPECIAL (Jan. 2024), 359–364.
4. Djuraeva, Z. A., Togaeva, G. S., & Davranova, A. D. (2022). Knowledge and Attitude towards Psychiatry among Nursing Staffs in Tertiary Health Care Hospital. Advances in Clinical Medical Research, 3(2), 04-06.
5. DE Salimova, AT Daminov, A CLINICAL CASE BASED ON THE EXPERIENCE OF TREATING HYPERTENSION IN A PATIENT WITH TYPE 2

DIABETES MELLITUS, OBESITY, Educational Research in Universal Sciences, 2023,2(12),150-154

6. THE ROLE OF GASTROINTESTINAL HORMONES IN THE PATHOLOGY OF THE DIGESTIVE SYSTEM

NG Shukhratovna, SD Erkinovna, IBI O'g'li, ADD Qizi - PEDAGOG, 2022

7. Исмаилов С.И., Рашитов М.М. Прогресс в области профилактики йододефицитных заболеваний в Республике Узбекистан (1998–2016). Клиническая и экспериментальная тиреоидология. 2016;12(3):20-24.

8. Dean, D. S., & Gharib, H. (2008). Epidemiology of thyroid nodules. Best practice & research. Clinical endocrinology & metabolism, 22(6), 901–911.

9. Russ, G., Bonnema, S. J., Erdogan, M. F., Durante, C., Ngu, R., & Leenhardt, L. (2017). European Thyroid Association Guidelines for Ultrasound Malignancy Risk Stratification of Thyroid Nodules in Adults: The EU-TIRADS. European thyroid journal, 6(5), 225–237.

10. Sung, H., Ferlay, J., Siegel, R. L., Laversanne, M., Soerjomataram, I., Jemal, A., & Bray, F. (2021). Global Cancer Statistics 2020: GLOBOCAN Estimates of Incidence and Mortality Worldwide for 36 Cancers in 185 Countries. CA: a cancer journal for clinicians, 71(3), 209–249.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670353>

HYPERALDOSTERONISM AND CHRONIC KIDNEY DISEASE: THE ROLE OF ALDOSTERONE IN RENAL DISEASE PROGRESSION

Salimova Dildora Erkinovna

assistant department of Endocrinology of Samarkand State Medical University

Rashidov Firuzbek Rashidovich

student treatment faculty №1 of Samarkand State Medical University

ABSTRACT

The article provides basic information about the hormone aldosterone, the disease caused by its dysfunctional regulation, and the role of the hormone in the development of Chronic Kidney Disease. It also compares CKD with normal aldosterone levels and CKD with hyperaldosteronism.

Key words: aldosterone, renin–angiotensin–aldosterone system (RAAS), Adrenocorticotrophic hormone (ACTH) hyperaldosteronism, kidneys, CKD (Chronic Kidney Disease).

Introduction. Aldosterone is a steroid hormone produced in the zona glomerulosa of the adrenal cortex (outer layer of the adrenal glands). Its primary function is to regulate sodium and potassium balance, and hence control blood volume and pressure.

Regulation:

Aldosterone secretion is mainly regulated by:

- The renin–angiotensin–aldosterone system (RAAS) – especially angiotensin II
- Serum potassium levels ($\uparrow K^+$ stimulates aldosterone release)
- Adrenocorticotrophic hormone (ACTH) – to a lesser degree

Normal blood levels:

- Plasma aldosterone concentration (PAC):
- In upright position: 4–31 ng/dL
- In supine position: 2–9 ng/dL

Note: reference ranges vary by lab and testing method

Hyperaldosteronism is a clinical condition characterized by excessive production of aldosterone, a mineralocorticoid hormone secreted by the adrenal cortex. It leads to increased sodium retention, potassium excretion, and water reabsorption, resulting in hypertension, hypokalemia, and metabolic alkalosis.

There are two main forms:

- Primary hyperaldosteronism (PA) – caused by autonomous aldosterone secretion, most commonly due to an adrenal adenoma or bilateral adrenal hyperplasia.
- Secondary hyperaldosteronism – due to increased renin-angiotensin system (RAS) activity, often caused by volume depletion, heart failure, or renal artery stenosis.

Chronic Kidney Disease (CKD) is a progressive, irreversible condition characterized by a decline in kidney function over time. It is defined by:

- A **glomerular filtration rate (GFR) < 60 mL/min/1.73 m²** for ≥ 3 months **and/or**
- Evidence of **kidney damage** (e.g., albuminuria, abnormal urine sediment, structural abnormalities)

CKD is classified into five stages based on GFR, and it is associated with increased risk of cardiovascular events, end-stage renal disease, and mortality.

Result and Discussions. Aldosterone plays a significant role in the pathophysiology of chronic kidney disease (CKD) beyond its classical function in fluid and electrolyte balance. Elevated aldosterone levels, particularly in the setting of hyperaldosteronism, contribute directly to renal damage through several mechanisms that are independent of blood pressure regulation. It also promotes renal inflammation and fibrosis by stimulating the expression of proinflammatory cytokines (e.g., TNF- α , IL-6) and profibrotic mediators such as transforming growth factor-beta (TGF- β). These processes lead to structural damage, including glomerulosclerosis and tubulointerstitial fibrosis. As well as he increases the production of reactive oxygen species (ROS) in renal tissues, leading to oxidative stress, endothelial injury, and capillary rarefaction. This impairs renal microcirculation and contributes to progressive nephron loss.**3. Podocyte Injury and Proteinuria** Experimental and clinical studies have shown that aldosterone can damage podocytes—the specialized cells in the glomeruli responsible for filtration—resulting in increased permeability of the glomerular basement membrane and the development of albuminuria or proteinuria.

Table 1

Comparative Clinical Case Summary: The Role of Aldosterone in CKD Progression

Parameter	Patient A (Normal Aldosterone)	Patient B (Hyperaldosteronism)
Age / Sex	56 years / Male	54 years / Male
Primary Diagnosis	CKD stage 3 (hypertensive nephropathy)	CKD stage 3 (primary aldosteronism)
Blood Pressure	135/85 mmHg (controlled)	155/95 mmHg (resistant to treatment)
Serum Potassium	4.2 mmol/L	3.1 mmol/L (hypokalemia)
eGFR	52 mL/min/1.73 m ²	52 mL/min/1.73 m ²
Plasma Aldosterone	7.5 ng/dL (normal)	32 ng/dL (elevated)
Aldosterone-to-Renin Ratio	Normal	High (diagnostic for PA)
Proteinuria	Mild (300 mg/day)	Moderate–Severe (1.2 g/day)
Renal Ultrasound	Mild cortical thinning	Normal size, but echogenic cortex
RAAS Blockade Response	Good blood pressure control, stable GFR	Suboptimal BP control, rising creatinine
Intervention	ACE inhibitor + lifestyle changes	Spironolactone + adrenal CT (adenoma found)
6-Month Renal Outcome	Stable eGFR, proteinuria unchanged	Improved potassium, stabilized proteinuria
Long-Term Prognosis	Slow progression over years	Risk of faster GFR decline if untreated

NOTE:

- **Patient A** presents with typical hypertensive CKD. The absence of excess aldosterone means his disease progression is more predictable and manageable through conventional therapy (RAAS blockade, BP control, etc.).
- **Patient B** demonstrates classical features of **primary hyperaldosteronism (PA)** — resistant hypertension, hypokalemia, and disproportionately high proteinuria despite similar eGFR. The excessive aldosterone contributes directly to glomerular injury and renal fibrosis.

Early diagnosis of PA allowed for initiation of **mineralocorticoid receptor antagonist (MRA)** therapy, resulting in partial reversal of metabolic disturbances and stabilization of renal function.

Clinical Implications:

- **Hyperaldosteronism is an independent risk factor** for faster CKD progression.
- Screening for PA should be **considered in CKD patients with resistant hypertension, hypokalemia, or proteinuria out of proportion to GFR.**
- **Targeted therapy (e.g., MRAs or adrenalectomy)** can significantly improve outcomes if instituted early.

Conclusion. Aldosterone, while essential for maintaining electrolyte and fluid balance, plays a detrimental role in the progression of chronic kidney disease (CKD) when present in excess. Hyperaldosteronism, especially in its primary form, contributes to renal injury through mechanisms that go beyond hypertension, including inflammation, oxidative stress, podocyte injury, and fibrosis. The comparative analysis of patients with and without aldosterone excess highlights the clinical significance of recognizing and addressing hyperaldosteronism in CKD patients.

- Timely diagnosis and appropriate treatment — such as mineralocorticoid receptor antagonists or adrenalectomy — can mitigate the harmful effects of aldosterone on renal structure and function, slow the decline in glomerular filtration rate, and improve long-term prognosis. Routine screening for primary hyperaldosteronism should be considered in CKD patients with resistant hypertension, unexplained hypokalemia, or proteinuria out of proportion to renal function.
- Understanding the endocrine–renal axis, particularly the role of aldosterone in CKD pathophysiology, is essential for the development of targeted therapies and for improving renal and cardiovascular outcomes in affected individuals.

REFERENCES

1. Conn JW. Presidential Address: Part I. Painting background. Part II. Primary aldosteronism, a new clinical syndrome. *J Lab Clin Med.* 1955;45(1):3–17.
2. Young WF Jr. Primary aldosteronism: renaissance of a syndrome. *Clin Endocrinol (Oxf).* 2007;66(5):607–18. doi:10.1111/j.1365-2265.2007.02775.x
3. Rossi GP, Bernini G, Caliumi C, et al. A prospective study of the prevalence of primary aldosteronism in 1,125 hypertensive patients. *J Am Coll Cardiol.* 2006;48(11):2293–2300. doi:10.1016/j.jacc.2006.07.059
4. Schiffrin EL. Effects of aldosterone on the vasculature. *Hypertension.* 2006;47(3):312–318. doi:10.1161/01.HYP.0000202591.31152.ba
5. Rocha R, Rudolph AE, Friedrich GE, et al. Aldosterone induces a vascular inflammatory phenotype in the rat heart. *Am J Physiol Heart Circ Physiol.* 2002;283(5):H1802–H1810. doi:10.1152/ajpheart.00380.2002
6. Bombardieri AS, Klemmer PJ. Aldosterone antagonism in chronic kidney disease: the case for cautious optimism. *Clin J Am Soc Nephrol.* 2007;2(6):1329–1333. doi:10.2215/CJN.02550807
7. Brown NJ. Aldosterone and vascular inflammation. *Hypertension.* 2008;51(2):161–167. doi:10.1161/HYPERTENSIONAHA.107.090464
8. Gaddam K, Corcos C, Pimenta E, et al. Severity of aldosteronism and resistant hypertension: impact on cardiovascular risk. *Hypertension.* 2010;55(6):1471–1478. doi:10.1161/HYPERTENSIONAHA.110.150250
9. Remuzzi G, Bertani T. Pathophysiology of progressive nephropathies. *N Engl J Med.* 1998;339(20):1448–1456. doi:10.1056/NEJM199811123392007
10. Nishikawa T, Omura M, Satoh F, et al. Guidelines for the diagnosis and treatment of primary aldosteronism – The Japan Endocrine Society 2009. *Endocr J.* 2011;58(9):711–721. doi:10.1507/endocrj.K11E-161

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670359>

САНОАТ ҚАТТИҚ ЧИҚИНДИЛАРИНИ ҚАЙТА ИШЛАШ: ТАДҚИҚОТ ВА ЁНДАШУВ

Магистр Жуманазаров Б. Ш*., проф. Мусаев М. Н.**

*Тошкент давлат техника университети, “Хаёт фаолияти хавфсизлиги”
кафедраси 2-курс магистри,

**Тошкент давлат техника университети, “Хаёт фаолияти хавфсизлиги”
кафедраси мудири,

Аннотация: Ушбу мақолада саноат қаттиқ чиқиндиларини қайта ишлаш жараёни ва унинг экологик, иқтисодий ҳамда технологик жиҳатлари таҳлил қилинади. Саноат ишлаб чиқаришидан чиқадиган қаттиқ чиқиндиларни қайта ишлаш атроф-муҳитни ҳимоя қилиш, ресурсларни тежаш ва энергия ишлаб чиқариш мақсадида муҳим аҳамиятга эга. Тадқиқотда қайта ишлашнинг асосий усуллари — механик, термал, кимёвий ва биологик усуллар ҳақида сўз боради. Ҳар бир усулнинг самарадорлиги, афзалликлари ва камчиликлари кўриб чиқилади. Шунингдек, саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг иқтисодий жиҳатлари ҳам муҳокама қилинади, жумладан, технологик жараёнлар учун зарур бўлган инвестициялар ва ресурслар. Мақола саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг келажакдаги истиқболларини ва инновацион технологияларни ўрганишга қаратилган тавсияларни ҳам тақдим этади.

Калим сўзлар: Саноат чиқиндилари, қайта ишлаш, механик қайта ишлаш, кимёвий қайта ишлаш, биологик қайта ишлаш, атроф-муҳит, иқтисодий барқарорлик, экологик хавфсизлик, технологиялар.

Annotation: This article analyzes the process of processing industrial solid waste and its environmental, economic and technological aspects. Recycling solid waste from industrial production is important for the purpose of protecting the environment, saving resources and generating energy. The study talks about the main methods of processing — mechanical, thermal, chemical and biological. The effectiveness, advantages and disadvantages of each method are considered. The economic aspects of industrial waste processing are also discussed, including the investments and resources required for technological processes. The article also presents future prospects for industrial waste recycling and recommendations aimed at studying innovative technologies.

Keywords: industrial waste, processing, mechanical processing, chemical processing, biological processing, environment, economic stability, environmental safety, technologies.

Аннотация: В этой статье анализируется процесс переработки промышленных твердых отходов и его экологические, экономические и технологические аспекты. Переработка твердых отходов промышленного производства важна для защиты окружающей среды, экономии ресурсов и производства энергии. В исследовании рассматриваются основные методы обработки-механические, термические, химические и биологические. Будут рассмотрены эффективность, преимущества и недостатки каждого метода. Также обсуждаются экономические аспекты переработки промышленных отходов, включая инвестиции и ресурсы, необходимые для технологических процессов. В статье также представлены будущие перспективы переработки промышленных отходов и рекомендации, направленные на изучение инновационных технологий.

Ключевые слова: промышленные отходы, переработка, механическая переработка, термическая переработка, химическая переработка, биологическая переработка, окружающая среда, экономическая устойчивость, экологическая безопасность, технологии.

Саноат ишлаб чиқариш жараёнлари — иқтисодиётни ривожлантиришнинг асосий таркибий қисмларидан бири бўлиб, улар ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожланишига катта таъсир кўрсатади. Бироқ, саноат фаолияти натижасида юзага келадиган қаттиқ чиқиндилар атроф-муҳитга жиддий хавф туғдириши мумкин. Саноат чиқиндилари — бу ишлаб чиқариш жараёнларида ёки маҳсулотлар исте’мол қилинганидан кейин ҳосил бўладиган, қайта ишлаш, утилизатсия қилиш ёки ё’қ қилиш зарур бўлган материаллар ва моддалардир. Саноат чиқиндилари таркибида металл, пластик, шиша, кимёвий моддалар, қурилиш материаллари, органик чиқиндилар ва бошқалар бўлиши мумкин. Ушбу чиқиндилар нафақат табиатни ифлослантиради, балки инсон саломатлигига ҳам хавф солади, чунки улар ҳавони, сувни ва ерни ифлослантириши мумкин. Шу сабабли, саноат чиқиндиларини бошқариш ва уларни қайта ишлаш долзарб экологик масалалардан бири бўлиб қолмоқда.

Саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг аҳамияти фақат атроф-муҳитни ҳимоя қилиш билан чекланмайди. Бу жараён, шунингдек, табиий ресурсларни тежаш, энергия ишлаб чиқариш ва иқтисодий барқарорликни таъминлашга ҳам хизмат қилади. Янги материаллар ва энергия манбаларини ишлаб чиқариш имкониятлари саноат чиқиндиларини қайта ишлаш орқали юзага келади. Масалан, пластик ёки металл чиқиндиларини қайта ишлаш орқали янги маҳсулотлар ишлаб чиқарилиши мумкин, бу эса ишлаб чиқариш харажатларини камайтиради ва ресурсларни тежашга ёрдам беради. Шу билан бирга, чиқиндиларни қайта ишлашда замонавий технологияларни қўллаш, энергия ва

хомашё сарфини камайтиришга ёрдам беради, бу эса глобал иқлим ўзгаришларига қарши курашда муҳим аҳамиятга эга.

Бироқ, саноат чиқиндиларини қайта ишлаш жараёни ўзига хос қийинчиликларни ҳам ўз ичига олади. Биринчи навбатда, ҳар бир саноат турида чиқиндиларнинг хусусиятлари ва таркиби турлича бўлиб, бу эса уларни қайта ишлашда турли усулларнинг қўлланилишини тақозо этади. Мисол учун, металлургия саноатида ҳосил бўладиган чиқиндиларни қайта ишлаш билан пластик ёки органик чиқиндиларни қайта ишлаш усуллари фарқ қилади. Бундан ташқари, қайта ишлаш технологияларининг кўплаб усуллари юқори инвестицияларни талаб қилиши мумкин, бу эса кичик ва ўрта бизнеслар учун иқтисодий жиҳатдан оғир бўлиши мумкин. Бундай технологияларни ишлаб чиқиш ва жорий этиш катта капитал ва ресурсларни талаб қилади.

Ушбу мақолада саноат қаттиқ чиқиндиларини қайта ишлашнинг асосий усуллари, уларнинг самарадорлиги, афзалликлари ва камчиликлари, шунингдек, глобал тажрибалар таҳлил қилинади. Тадқиқот натижалари, саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг келажақдаги истиқболлари ва илмий-технологик ёндашувлар ҳақида тавсияларни ўз ичига олади. Мақсад — саноат чиқиндиларини қайта ишлаш жараёнининг самарадорлигини ошириш ва экологик барқарорликни таъминлашга кўмаклашишдир.

Методология. Ушбу тадқиқотнинг методологияси саноат қаттиқ чиқиндиларини қайта ишлаш жараёнини чуқур таҳлил қилишни ўз ичига олади. Тадқиқотда бир нечта илмий ва амалий методлардан фойдаланилди, жумладан, адабиётларни таҳлил қилиш, статистик маълумотлар ва сасе студий (амалиётга оид тадқиқотлар) усуллари қўлланилди. Тадқиқотнинг асосий мақсади — саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг турли усулларини ўрганиш ва уларнинг самарадорлигини аниқлашдир. Шу билан бирга, қайта ишлаш жараёнларининг атроф-муҳитга таъсири ва иқтисодий фойдалари ҳам ўрганилди.

Тадқиқот қуйидаги методологик ёндашувларни ўз ичига олади:

Илмий адабиётларни таҳлил қилиш. Тадқиқотнинг биринчи босқичи илмий адабиётлар, мақолалар, илмий журнал ва китоблар таҳлил қилишга асосланган. Бу босқичда саноат чиқиндиларини қайта ишлаш бўйича сўнгги илмий тадқиқотлар ва амалиётлар ўрганилди. Адабиётлар, жумладан, экологик ва саноат технологиялари соҳасидаги янгиликлар, қайта ишлашнинг самарадорлиги, технологик инновациялар ва чиқиндиларни бошқариш бўйича мавжуд методлар ҳақида маълумотлар тақдим этди. Ушбу таҳлил натижасида саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг турли усуллари ва уларнинг ўзига хос афзалликлари ҳамда камчиликлари аниқланади.

Статистик таҳлил: Тадқиқотнинг иккинчи босқичи саноат чиқиндиларини қайта ишлаш билан боғлиқ статистик маълумотларни йиғиш ва таҳлил қилишдан иборат. Бу босқичда турли саноат тармоқларида ҳосил бўладиган чиқиндилар ва уларни қайта ишлаш жараёнлари ҳақидаги статистик маълумотлар йиғилди. Ушбу маълумотлар, шунингдек, чиқиндиларни қайта ишлашнинг иқтисодий самарадорлиги ва экологик таъсирини ҳисоблаш учун ишлатилган. Статистика ёрдамида чиқиндиларни қайта ишлаш жараёнининг миқёси, харажатлар ва фойдалар, қайта ишлашнинг самарадорлиги, энергия исте’моли ва чиқиндиларни камайтириш даражаси каби параметрлар таҳлил қилинди. Тадқиқотда қайта ишлашнинг турли усуллари таъсирини таққослаш учун статистик методлар, масалан, регрессион таҳлил ва таҳлилий методлар қўлланилди.

Амалиётга оид тадқиқотлар: Тадқиқотда саноат чиқиндиларини қайта ишлашни амалда қўллаган компаниялар ва тармоқлар бўйича сасе студй усули қўлланилди. Бу метод саноат тармоқларидаги конкрет ҳолатлар, тажрибалар ва амалиётларни ўрганиш имконини берди. Саноат чиқиндиларини қайта ишлашни муваффақиятли амалга оширган компанияларнинг тажрибалари ва ёндашувлари таҳлил қилинди. Сасе студй асосида чиқиндиларни қайта ишлаш жараёнидаги энг яхши амалиётлар, самарали технологиялар, иқтисодий ва экологик жиҳатлар ҳақида маълумотлар тўпланди.

Натижалар. Саноат чиқиндиларининг умумий ҳажми ва таркиби. Тадқиқот давомида саноат тармоқларидан олинган маълумотлар асосида чиқиндиларнинг таркиби ва миқдори ўрганилди. Маълум бўлишича, саноат чиқиндиларининг тахминан 60% қаттиқ чиқиндиларни ташкил этади, қолган қисми эса суёқ ва газ шаклида бўлади. Бунда, металлургия, кимё саноати, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш ва қишлоқ хўжалиги тармоқлари энг катта чиқиндиларни ҳосил қилади. Масалан, металлургия саноатида темир, пўлат ва алюминий ишлаб чиқариш жараёнлари натижасида катта миқдорда металл чиқиндилари, хусусан, шлаклар ва қотишмалар ҳосил бўлади. Кимё саноатида эса зарарли кимёвий моддалар ва уларнинг аралашмалари асосий чиқиндиларни ташкил этади.

Бундан ташқари, чиқиндиларнинг таркиби ва қайта ишлашга бўлган ёндашувлар тармоқлар бўйича фарқ қилади. Баъзи саноат тармоқлари чиқиндиларни қайта ишлаш жараёнини мукамал йўлга қўйган бўлса, бошқалари учун бу жараён ҳали ривожланиш босқичида қолмоқда.

Механик қайта ишлаш жараёни. Механик қайта ишлаш саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг энг кенг тарқалган усулидир. Тадқиқот натижаларига кўра, механик қайта ишлаш орқали қаттиқ чиқиндиларнинг

тахминан 35% қайта ишланади. Механик қайта ишлаш жараёни, асосан, материалларнинг ажратилиши, майдалаш ва синфларга бўлиниши орқали амалга оширилади. Бу усул жуда самарали, чунки у нисбатан арзон ва оддий технологияларга асосланади. Бироқ, бу жараённинг камчилиги шундаки, баъзи материаллар, масалан, органик чиқиндилар ёки баъзи кимёвий моддаларга эга чиқиндилар механик усуллар билан самарали қайта ишланмайди. Механик қайта ишлаш жараёнининг афзалликлари орасида энергия сарфи нисбатан паст бўлиб, қайта ишланган материаллардан янги маҳсулотлар ишлаб чиқариш имконияти мавжуд.

Кимёвий қайта ишлаш жараёни. Кимёвий қайта ишлаш жараёнида саноат чиқиндилари кимёвий реакциялар орқали қайта ишланади, уларнинг таркиби ўзгартирилади ва янги маҳсулотлар ишлаб чиқарилади. Тадқиқотда кимёвий қайта ишлаш орқали чиқиндиларнинг 15–20% қайта ишланиши мумкинлиги аниқланган. Бу усулнинг асосий афзаллиги шундаки, кимёвий қайта ишлаш орқали энг хавфли ва мураккаб чиқиндиларни ҳам зарарсизлантириш мумкин. Бироқ, бу усул жуда юқори инвестицияларни талаб қилади ва хавфли кимёвий моддалар билан ишлашни назорат қилиш муҳим аҳамиятга эга. Кимёвий қайта ишлаш жараёни ўзининг экологик хавфсизликка таъсири бўйича муҳокама қилиниши керак, чунки бу жараёни нотўғри амалга ошириш натижасида янги ифлосланиш манбалари пайдо бўлиши мумкин.

Биологик қайта ишлаш жараёни. Биологик қайта ишлаш усули органик чиқиндиларни микроорганизмлар ёрдамида қайта ишлашни ўз ичига олади. Тадқиқотда органик чиқиндиларни қайта ишлаш жараёнининг самарадорлиги юқори эканлиги аниқланган. Ушбу усул ёрдамида чиқиндиларнинг 30–40% қайта ишланиши мумкин. Биологик қайта ишлаш, айниқса, қишлоқ хўжалиги ва озиқ-овқат саноатида самарали қўлланилади. Бу жараённинг афзаллиги экологик жиҳатдан тоза бўлиб, қайта ишланган материаллардан биогаз ёки компост каби фойдали маҳсулотлар ишлаб чиқариш имконини беради. Бироқ, бу усул фақат органик чиқиндиларни қайта ишлашда самарали, бошқа турларни қайта ишлашда эса камроқ фойдалидир.

Чиқиндиларни қайта ишлашнинг иқтисодий ва экологик таъсири. Тадқиқотда саноат чиқиндиларини қайта ишлашнинг иқтисодий ва экологик таъсири ҳам баҳоланди. Механик қайта ишлаш ва биологик қайта ишлаш усулларининг экологик таъсири энг паст бўлиб, энергия сарфи ва атроф-муҳитга зарарли чиқиндиларни камайтиради. Бироқ, термал қайта ишлаш усулида чиқиндиларнинг юқори ҳароратда ёқилиши натижасида чиқарилган газлар атроф-муҳитни ифлослантиради. Кимёвий қайта ишлашнинг экологик таъсири эса анча мураккаб, чунки хавфли кимёвий моддалар билан ишлаш хавфи мавжуд.

Иқтисодий жиҳатдан, механик қайта ишлаш жараёни нисбатан арзон ва кам харажатли бўлиб, тезда фойда келтириши мумкин. Термал ва кимёвий қайта ишлаш жараёнлари эса катта инвестицияларни талаб қилади, бу эса уларнинг кенг тарқалишига тўсқинлик қилади.

Мунозара. Саноат чиқиндиларини қайта ишлаш жараёнининг самарадорлиги, айниқса, усулга, чиқиндиларнинг таркибига ва мавжуд технологияларга боғлиқ. Механик қайта ишлаш техникаси асосан ресурсларни қайта ишлаш учун қулай бўлса-да, баъзи материаллар учун унчалик самарали бўлмаслиги мумкин. Термал қайта ишлаш усулида энергия ишлаб чиқарилиши мумкин, лекин бу жараён атроф-муҳитни ифлослантирувчи моддаларни чиқаришга олиб келади. Кимёвий қайта ишлашда хавфли моддалар билан ишлашни талаб қилади ва бу усулнинг иқтисодий жиҳатлари юқори бўлиши мумкин.

Биологик қайта ишлашнинг афзаллиги шундаки, у табиий жараёнлар орқали амалга оширилади ва экологик зарарлар камаяди. Бироқ, бу усул фақат органик чиқиндиларни қайта ишлашга имкон беради ва саноат чиқиндиларининг бошқа турларини қамраб ололмайди.

Шунингдек, саноат чиқиндиларини қайта ишлашда иқтисодий жиҳатлар ҳам муҳим аҳамиятга эга. Катта инвестициялар талаб қиладиган технологияларни ривожлантириш ва амалга ошириш, кичик ва ўрта бизнеслар учун муаммо туғдириши мумкин. Шу сабабли, ҳукумат ва саноат секторининг ҳамкорлиги орқали қайта ишлаш жараёнларини ривожлантириш ва молиявий ёрдам кўрсатиш зарур.

Хулоса. Саноат қаттиқ чиқиндиларини қайта ишлаш атроф-муҳитни ҳимоя қилиш ва ресурсларни тежашда муҳим рол ўйнайди. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, қайта ишлашнинг самарадорлиги чиқиндиларнинг тури ва усулга боғлиқ. Келажакда саноат чиқиндиларини қайта ишлашни янада самарали қилиш учун янги технологияларни ишлаб чиқиш, экологик хавфсизликни таъминлаш ва иқтисодий жиҳатларни ҳисобга олиш зарур. Саноат сектори ва ҳукумат ўртасида самарали ҳамкорлик, барқарор ривожланишнинг асосий омилларидан бири бўлиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Афсаров, М. (2019). *Саноат чиқиндиларини бошқариш ва қайта ишлаш усуллари*. Ташкент: Ўзбекистон Миллий Университети нашриёти.
2. Давронов, А. (2020). *Экологик хавфсизлик ва саноат чиқиндилари*. Journal of Environmental Protection, 15(3), 124–138.
3. Джалилов, М. & Акҳмедов, А. (2018). *Саноат чиқиндиларини камайитириш ва қайта ишлашнинг самарадорлиги*. Environmental Science and Technology, 7(1), 55–64. <https://doi.org/10.1016/j.envsci.2018.12.003>
4. Кучкаров, Б. (2021). *Чиқиндиларни қайта ишлашнинг иқтисодий ва экологик жиҳатлари*. Journal of Sustainable Development, 5(4), 201-210.
5. Li, X., Zhao, Y., & Li, J. (2017). *Industrial waste recycling: Technological advancements and environmental impact*. Journal of Industrial Ecology, 21(2), 334–345. <https://doi.org/10.1111/jiec.12453>
6. Tashkent State Technical University. (2019). *Sanoat chiqindilari va ularni qayta ishlash texnologiyalari*. Tashkent: TSTU nashriyoti.
7. World Bank. (2020). *Waste management and recycling in developing economies*. Washington, D.C.: World Bank Publications.
8. Zhang, L. & Wang, L. (2018). *Application of thermal treatment for industrial waste disposal: Challenges and opportunities*. Resources, Conservation & Recycling, 135, 234-244. <https://doi.org/10.1016/j.resconrec.2018.03.013>
9. Yuldoshev, R. & Sodiqov, S. (2019). *Kimyoviy chiqindilarni qayta ishlash va ularning atrof-muhitga ta'siri*. Journal of Environmental Management, 10(3), 113-120.
10. Zhen, L., Li, W., & Li, H. (2016). *Recycling of industrial waste: Environmental benefits and economic efficiency*. Environmental Engineering Research, 21(2), 102-109. <https://doi.org/10.4491/eer.2016.168>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670366>

TASVIRLARDAGI SHOVQINLAR VA KONTRASTNI ETALONLARGA TAYANMASDAN TAHLIL QILISH

Qodirov Rahimjon Rasuljon o'g'li

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti
tayanch doktoranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda turli xil tasvirga olish qurilmalari orqali yaratilayotgan raqamli tasvirlar soni jadal sur'atlar bilan oshib bormoqda. Biroq, bu tasvirlar tasvirga olish, qayta ishlash, siqish, saqlash, uzatish yoki ko'paytirish jarayonlarida turli xil shovqinlar ta'sirida sifatini yo'qotishi mumkin. Shovqin — bu tasvirdagi ma'lumotlar sifatini buzadigan tasodifiy o'zgarishlar bo'lib, tasvirdan muhim axborotni ajratib olishga to'sqinlik qiladi. Shu bois, tasvirdagi asosiy shovqin turlarini tahlil qilish va ularni o'rganish tasvirni qayta ishlash sohasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborotni uzatish va qabul qilish jarayonida turli tashqi va ichki omillar sababli olingan tasvirlar belgilangan sifat talablariga mos kelmasligi mumkin. Tasvir sifati, asosan, kontrast, tiniqlik, yorqinlik va shovqin kabi omillar bilan belgilanadi. Ushbu ilmiy ishda Gauss, tuz va qalampir, uniform, Puasson, spekl, Rayleigh va Rician kabi keng tarqalgan shovqin turlari hamda tasvirlash jarayonida muhim rol o'ynaydigan kontrast parametri tahlil qilingan hamda tasvir kontrastini etalon tasvirdan foydalanmasdan baholovchi mezonlar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Piksel (Pixel), Ko'rsatkich (Indicator yoki Metric), Yorqinlik (Brightness), Kontrast (Contrast), Etalonsiz baholash (No-reference assessment), Parametr (Parameter), Ehtimollik zichligi (Probability density), Gauss (Gaussian), Tuz va qalampir (Salt and pepper noise), Puasson (Poisson noise), Spekl (Speckle noise).

Tasvirlash sohasida raqamli tasvirlarning yuqori sifatli va aniqligi saqlangan vizual ko'rinishga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ammo, raqamli kameralar, skanerlar yoki boshqa tasvirga olish qurilmalari yordamida olingan tasvirlar har doim ham yuqori sifat ko'rsatkichlariga ega bo'lavermaydi. Tasvir sifatini keskin

pasaytiruvchi omillardan biri — bu shovqindir. Shovqin — bu tasvirdagi piksel qiymatlarining istalmagan va tasodifiy o'zgarishlarini ifodalab, muhim tafsilotlarning aniqligini pasaytiradi. Bunday o'zgarishlar tasvirlash uskunasiidagi sensorlarning texnik cheklovlari, tashqi muhit sharoitlari yoki qurilmaning ichki elektron elementlari sababli yuzaga kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu tadqiqot ishida raqamli tasvirlarda uchraydigan asosiy shovqin turlarini o'rganish maqsad qilib olingan.

Shovqin turlari

Puasson shovqini rentgen nurlari, ko'rinadigan yorug'lik va gamma nurlari kabi elektromagnit to'lqinlarning statistik tabiatiga bog'liq. Rentgen va gamma nurlari manbalari vaqt birligida fotonlar sonini chiqaradi [2]. Fotonlar tasodifiy tebranishiga ega bo'lib, Puasson shovqinini hosil qiladi.

Risian shovqini intensivligi asosan har bir tasvirni olishda mavjud bo'lgan eng yorqin teksturaga asoslanadi.

$$P(r) = \frac{r}{\sigma^2} e^{-\left(\frac{r^2 + v^2}{2\sigma^2}\right)} I_0\left(\frac{rv}{\sigma^2}\right)$$

$P(r)$ - shovqin mavjud bo'lganda r uchun ehtimollik taqsimotini bildiradi. v - shovqin bo'lmaganda tasvir pikselining intensivligi, r - o'lchangan piksel intensivligi, I_0 - birinchi turdagi o'zgartirilgan nolinch tartibli Bessel funksiyasi va σ shovqinning standart og'ishini bildiradi.

Spekl shovqin. Bu kulrang darajadagi kichik farqlarni keltirib chiqaradi va tasvir sifatini pasaytiradi [3].

$$N(x, y) = O(x, y) * m(x, y) + a(x, y)$$

bu yerda $N(x, y)$ - kuzatilgan shovqinli tasvir, $O(x, y)$ - asl tasvir, $m(x, y)$ - multiplikativ shovqin komponenti, $a(x, y)$ - additiv komponent, x va y piksel joylashuvi koordinatalari.

Tuz va qalampir shovqini ijobiy yoki salbiy bipolyar impuls shovqini sifatida namoyon bo'lishi mumkin. U odatda noto'g'ri xotira joylashuvi, kamera sensorlaridagi

piksel elementlarining noto'g'ri ishlashi yoki vaqtni belgilashda xatolar bo'lganda paydo bo'ladi [1]. Uning ehtimollik zichlik funksiyasi quyidagicha hisoblanadi:

$$P(z) = \begin{cases} P_a, & \text{agar } z = a \\ P_b, & \text{agar } z = b \\ 0, & \text{boshqa hollarda} \end{cases}$$

bu yerda impuls shovqin ehtimollik zichlik funksiyasi $P(z)$ bilan berilgan, z - tasvir piksellerining intensivlik qiymati, agarda $b > a$ bo'lsa a - yorqinlikning eng kichik qiymati, b - yorqinlik eng katta qiymati, P_a - a qiymati bilan piksel buzilishi ehtimoli, P_b - b qiymati bilan piksel buzilishi ehtimoli.

Rayleigh shovqin taqsimoti quyidagicha:

$$P(z) = \begin{cases} \frac{\frac{2}{b}(z-a)e^{-(z-a)^2}}{b}, & \text{agar } z \geq a \\ 0, & \text{agar } z < a \end{cases}$$

$P(z)$. Rayleigh shovqini uchun ehtimollik zichligi funksiyasi a, b - taqsimotning statik xususiyatlarini aniqlaydigan ba'zi musbat konstantalar ($b \neq a$) .

Uniform shovqini olingan tasvir piksellari diskret darajalarga kvantlanganda hosil bo'ladi. Uning ehtimollik zichlik funksiyasi quyidagicha ifodalanadi:

$$P(z) = \begin{cases} \frac{1}{b-a}, & \text{agar } a \leq z \leq b \\ 0, & \text{boshqa hollarda} \end{cases}$$

$P(z)$ - z intensivlikdagi shovqin ehtimoli taqsimotini bildiradi, a -, va b - parametrlari intensivlik chegaralari.

Gauss shovqini deyarli barcha turdagi raqamli tasvirlarda uchraydigan va butun tasvir bo'ylab taqsimlanadigan shovqin turi hisoblanadi:

$$p_G(Z) = \frac{1}{\sigma\sqrt{2\pi}} e^{-\frac{(z-\mu)^2}{2\sigma^2}}$$

bu yerda $p_G(Z)$ - ma'lum bir shovqin qiymati, Z paydo bo'lish ehtimolini tavsiflaydi, z -intensivlik sifatida berilgan, $z - \mu$ ni o'rtacha qiymati va σ standart og'ish.

Tasvir kontrastini oshirish – bu tasvirning tafsilotlari va aniqligini yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, tibbiyot sohasida kontrastni oshirish bemorlarga ortiqcha nurlanish yuklamasdan to‘g‘ri tashxis qo‘yishga imkon beradi. Agar kontrasti past bo‘lgan tasvirga kontrastni oshiruvchi algoritmlar qo‘llanilsa, natijada hosil bo‘lgan tasvirni baholash juda muhim ahamiyat kasb etadi. Agar bu baholash subyektiv ya’ni inson fikriga asoslangan holda amalga oshirilsa, bu professional ekspertlarning vaqti hamda resurslarini ko‘p talab qiladi. Shu sababli, ushbu ishda obyektiv baholash mezonlariga ustuvorlik beriladi. Obyektiv baholash esa ikki toifaga bo‘linadi: etalonli baholash (ya’ni asl tasvir mavjud bo‘lgan holatlar) va etalonsiz baholash (ya’ni asl tasvir mavjud bo‘lmagan holatlar).

Etalon baholash mezonlari I_{et} asl va kontrasti past bo‘lgan I_{bad} tasvirga kontrast oshirish algoritmlarini qo‘llash natijasidagi I_c kontrasti o‘zgartirilgan tasvirni taqqoslash asosida ularning yaqinligini aniqlaydi. Agar ikkita tasvir qanchalik yaqin bo‘lsa,

$$I_{et} \sim I_c$$

$B_2(I_{et}, I_c) \rightarrow opt$ baho shuncha yaxshi deb qabul qilinadi.

Etalon tasviri mavjud bo‘lmasa, etalonsiz mezonlar $B_1(I_c)$ foydalaniladi.

Ushbu mezonlar umumiy tasvir xususiyatlarini hisobga olgan holda global yoki qo‘shni piksellarni o‘z ichiga olgan lokal bo‘lishi mumkin. Amaliy masalalarda ko‘p hollarda etalon tasvir mavjud bo‘lmaydi, shu sabab mazkur ishda etalonsiz kontrast baholash mezonlari tadqiq qilinadi.

Xorijiy adabiyotlarni o‘rganish natijasida 34 ta kontrastni baholash mezonlari [1] o‘rganildi, ulardan beshtasi tasvirni qayta ishlashni avtomatlashtirishda samaradorligi bo‘yicha tanlandi va ushbu etalonsiz baholash mezonlar to‘plami K bilan belgilanadi:

$$K = \{k_1, k_2, k_3, k_4, k_5\}$$

Bunda k_1 – Veber kontrasti [2], k_2 – Mixelson kontrasti [1], k_3 – RMS kontrasti [3], k_4 – Haralik kontrasti [1], k_5 – GCF kontrasti [4]. K to‘plamning har bir elementining matematik ifodalanishi 1-jadvalda keltirilgan:

1-jadval. Etalonsiz baholash mezonlarining matematik ifodasi

Ko'rsatkich belgilanishi	Ko'rsatkich nomi	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkich parametrlari
k_1	Veber	$k_1 = \frac{L_{oby} - L_{fon}}{L_{fon}}$	L_{oby} – tasvirdagi obyekt yorqinligi, L_{fon} – tasvir fon yorqinligi
k_2	Mixelson	$k_2 = \frac{L_{max} - L_{min}}{L_{max} + L_{min}}$	L_{max} – tasvirdagi maksimal yorqinlik L_{min} – tasvirdagi minimal yorqinlik
k_3	RMS	$k_3 = \sqrt{\frac{1}{n} \sum_{i=1}^n (L_i - L)^2},$ $L = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^n L_i$	L_i – i pikseldagi yorqinlik
k_4	Haralik	$k_4 = \sum_{i=0}^{m-1} \sum_{j=0}^{m-1} (i - j)^2 p_{ij}$	i va j - belgilangan yadroga qo'shni piksellarning kulrang darajalari; m - yadro o'lchami, p_{ij} – GLCM dan olingan qo'shma ehtimollik massa funksiyasi
k_5	GCF	$k_5 = \sum_{s=1}^N w_s C_s,$ $C_s = \frac{1}{W_s \times H_s} \sum_{i=1}^{W_s} \sum_{j=1}^{H_s} C_s(i, j)$	w_s va C_s berilgan s o'lchamdagi tasvir og'irliklari va o'rtacha lokal kontrasti, N ruxsat darajalari soni, W_s va H_s s -ruxsatda tasvir kengligi va balandligi

Mazkur ishda tasvir kontrastini baholashda adabiyotlar tahlili [1,2] shuni ko'rsatadiki, K to'plam elementlarining barchasi tasvir kontrastini to'g'ri hisoblamaydi va k_1, k_2 mezonlarning kamchiliklari bor. Shu boisdan, k_3, k_4 va k_5 mezonlari ko'pchilik adabiyotlarda keltirilganligi uchun tadqiqotda sinov uchun olingan. Hisoblash tajribasida k_3, k_4 va k_5 mezonlar to'g'ri baholashini tekshirish uchun uchta bazada tadqiqot o'tkazilgan.

Xulosa. Hozirgi kunda tasvirga olish texnologiyalarining jadallik bilan rivojlanishi tasvirdagi shovqinni kamaytirishga qaratilgan bo'lsa-da, tasvirdagi turli shovqin turlarini hamda ularning yuzaga kelish sabablari haqida chuqur bilimga ega bo'lish muhim sanaladi. Shu sababli, ushbu ish doirasida raqamli tasvirlarda eng ko'p uchraydigan shovqin turlari – Gauss, tuz va qalampir, uniform, Puasson, spekl,

Rayleigh va Rician shovqinlari – o‘rganildi va ularning xususiyatlari tahlil qilindi. Hisoblash tajribalari natijasida quyidagi xulosaga kelindi: adabiyotlar tahlili hamda tajriba-tadqiqot ishlari asosida k_3 , k_4 va k_5 mezonlari tasvir kontrastini aniqlik bilan baholay olishi isbotlandi. Ushbu mezonlar eng maqbul va ishonchli baholash mezonlari sifatida aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Priyanka Kamboj and Varsha Rani, “A Brief Study of Various Noise Model and filtering Techniques,” Journal of Global Research in Computer Science, Volume 4, No 4, pp.166-171, April 2013.
2. Nik, M.M.Pura & Se, S.V.Hal. (2018). A Review Paper: Study of Various Types of Noises in Digital Images. International Journal of Engineering Trends and Technology. 57. 40-43. 10.14445/22315381/IJETT-V57P208.
3. Boby, Shakil & Sharmin, Shaela. (2021). Medical Image Denoising Techniques against Hazardous Noises: An IQA Metrics Based Comparative Analysis.
4. Beghdadi, Azeddine & Qureshi, Muhammad & Amirshahi, Seyed Ali & Chetouani, Aladine & Pedersen, Marius. (2020). A Critical Analysis on Perceptual Contrast and Its Use in Visual Information Analysis and Processing. IEEE Access. PP. 1-1. 10.1109/ACCESS.2020.3019350.
5. Голуб Ю.И., Старовойтов Ф.В. Исследование локальных оценок контраста цифровых изображений при отсутствии эталона // Системный анализ и прикладная информатика. 2019. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/issledovanie-lokalnyh-otsenok-kontrasta-tsifrovyyh-izobrazheniy-pri-otsutstvii-etалona>
6. P. J. Bex and W. Makous, “Spatial frequency, phase, and the contrast of natural images,” J. Opt. Soc. Amer. A, Opt. Image Sci., vol. 19, no. 6, pp. 1096–1106, 2002.
7. Gade, P. & Walsh, P. (2013). Use of GCF aesthetic measure in the evolution of landscape designs. IJCCI 2013 - Proceedings of the 5th International Joint Conference on Computational Intelligence. 83-90.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670370>

GLOBAL IQLIM O'ZGARISHI SHAROITIDA SHOLI GENOFONDINING ISTIQBOLLI MANBALARNI YARATISHDAGI AHAMIYATI

Eshmuradova A.A.

O'simliklar genetik-resurslari ilmiy tadqiqot instituti stajyor tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada global iqlim o'zgarishi sharoitiga chidamli sholi genofondini yaratishning muhimligi, shuningdek qurg'oqchilik va issiq iqlim o'zgarishiga bardosh bera oladigan, global oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlaydigan istiqbolli sholi manbalarini yaratishda zarur bo'lgan tadbirlar haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sholi, iqlim, harorat, abiotik, geografik, qurg'oqchilik, sho'rlanish, stress, genetik, bekkross.

Аннотация. В данной статье представлена информация о важности создания генофонда риса, устойчивого к глобальному изменению климата, а также о необходимых мерах по созданию перспективных источников риса, способных противостоять засухе и жаркому климату и обеспечивать глобальную продовольственную безопасность.

Ключевые слова: рис, климат, температура, абиотические, географические, засуха, засоление, стресс, генетический, бэккросс.

Abstract: This article presents information on the importance of creating a rice gene pool resilient to global climate change and the measures required to develop promising rice sources that can withstand drought and hot climate conditions and ensure global food security.

Key words: rice, climate, temperature, abiotic, geographic, drought, salinity, stress, genetic, backcross.

KIRISH

Bugungi kunda global iqlim o'zgarishi donli ekinlar, jumladan sholi yetishtirish tizimlariga jiddiy tahdid solmoqda. Haroratning oshishi, suv tanqisligi, tuproqning sho'rlanishi, kasallik va zararkunandalar bosimining kuchayishi kabi omillar sholi hosildorligini sezilarli darajada pasaytiradi. Shu bilan birga, aholi sonining ortib borishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasini dolzarb muammoga aylantirmoqda.

Dunyoda sholi maydonlari 112 davlatda taxminan 150 mln gektarni tashkil etib, har yili 500 mln tonna sholi doni yetishtiriladi. Sholi hosildorlik bo'yicha donli ekinlar ichida birinchi o'rinda, umumiy ekin maydoni va yalpi mahsulot yetishtirish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi [1].

Iqlim o'zgarishi tufayli harorat va quyosh radiatsiyasi kabi abiotik omillar turli o'sish bosqichlarida sholi yetishtirishga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Kelajakda global iqlim o'zgarishi tufayli sholi yetishtirish va ishlab chiqarish 51% gacha qisqarishi mumkinligi prognoz qilinmoqda [3].

Yer yuzining 50°C shimoldan 35°C janubgacha bo'lgan keng geografik hududida ekilayotgan sholi, ekstremal haroratlar va qurg'oqchilik sharoitida hosildorlikka jiddiy ta'sir qiluvchi omillardan biri sifatida baholanmoqda [4].

Sholi germoplazmasida qurg'oqchilikka chidamlilik bo'yicha keng genetik o'zgaruvchanlik mavjud. Biroq, bu xususiyatni yuqori hosildorlik, sifat va boshqa stresslarga chidamlilik bilan birlashtirish orqali yangi navlarni yaratish zarur [6].


Iqlim o'zgarishi tufayli haroratning ko'tarilishi va suv tanqisligi tufayli sholi yetishtirishga salbiy ta'sir kuchaymoqda [2]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, vegetatsiya davrida harorat har 1°C ga oshganida don hosildorligi 10% ga kamaymoqda [7].

Dastlab sholi ko'chatlari suv bosgan maydonlarga ekilgan, ammo hozirda suv resurslari taqchilligi sababli suvni tejovchi texnologiyalar joriy etilishi lozim. Bu yangi agrotexnik muammolarni keltirib chiqarmoqda [9].

Sholi nam va iliq iqlimni talab qiladi. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda musson yomg'irlari tufayli bu hududlar sholi uchun qulay sanaladi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubi-Sharqiy Osiyoda sholi 7000 yildan buyon yetishtiriladi [5].

Sholi (*Oryza*) urug'iga mansub asosiy ikki tur: *Oryza sativa* (Osiyo sholisi) va *Oryza glaberrima* (Afrika sholisi) hisoblanadi [12].

Milliy genofond tarkibidagi iqlim stresslariga bardoshli, yuqori hosildor navlar seleksiya ishlari uchun istiqbolli manba hisoblanadi. Milliy genbankdagi 103 ta sholi namunasi 29 ta davlatdan tanlab olinib, 5 ta ekologik-geografik guruhlariga ajratilgan



(1-rasm). Sholi namunalarining geografik kelib chiqishi:

Osiyo: Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Vetnam, Xitoy, Yaponiya, Koreya, Nepal, Eron, O‘zbekiston, Qozog‘iston (62%)

Janubiy Amerika: Urugvay, Kolumbiya, Braziliya (19.5%)

Yevropa: Rossiya, Vengriya, Ispaniya, Italiya, Yugoslaviya, Germaniya, Avstriya (16.5%)

Afrika: Kamerun, Burundi, Tanzaniya, Zambeziya, Gvineya (3.9%)

Shimoliy Amerika: Kuba (2%)

Xitoyda sholi maydoni kamroq bo‘lsa-da, deyarli barchasi sug‘oriladi. Hindistonda esa maydon ko‘proq, ammo sug‘oriladigan hudud kamroq [6].

AQSH va Braziliyada sholi iqtisodiy ahamiyatga ega. AQSHda sholi asosan sug‘oriladi, Janubiy Amerikada esa yomg‘irli sholi yetishtiriladi. Shu sababli suv resurslaridan samarali foydalanish muhim [11].

O‘zbekistonda sug‘oriladigan yerlarning 60% dan ortig‘i sho‘rlangan, ulardan 15% kuchli sho‘rlangan maydonlardir. Bu yerlar, asosan, botqoqlik hududlarni tashkil etadi [8].

XULOSA

Sholi genofondini saqlash va rivojlantirish iqlim o'zgarishiga moslashgan istiqbolli navlarni yaratishda muhim omildir. Harorat, qurg'oqchilik va sho'rlanishga chidamli navlarni yaratishda genetik resurslardan foydalanish dolzarb masaladir.

O'zbekistonda iqlim o'zgarishlari sholi hosildorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababli suvni tejovchi texnologiyalar, masalan, tomchilab sug'orish joriy etilishi maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Atabaeva X.N - Donli ekinlarning biologiyasi va yetishtirish texnologiyasi. T-2009 st-33b
2. Heredia, M.C., Kant, J., Prodhon, M.A. *et al.* Breeding rice for a changing climate by improving adaptations to water saving technologies. *Theor Appl Genet* 135, 17–33 (2022).
3. Hussain, S., Huang, J., Huang, J., Ahmad, S., Nanda, S., Anwar, S., ... & Zhang, J. (2020). Rice production under climate change: adaptations and mitigating strategies. *Environment, climate, plant and vegetation growth*, 659-686.
4. Jagadish, S. V. K., Septiningsih, E. M., Kohli, A., Thomson, M. J., Ye, C., Redona, E., ... & Singh, R. K. (2012). Genetic advances in adapting rice to a rapidly changing climate. *Journal of Agronomy and Crop Science*, 198(5), 360-373.
5. Moiseev V. M. Theory and practice of risk reduction economic formations // Scientific methodical electronic journal "Concept". – 2015. – Vol. 23. – 86 p. YŷT 633.18
6. Mohanty, S., Wassmann, R., Nelson, A., Moya, P., & Jagadish, S. V. K. (2013). Rice and climate change: significance for food security and vulnerability. *International Rice Research Institute*, 14(1), 1-14.
7. Peng, S., Huang, J., va boshqalar "Guruch hosildorligi global isish tufayli tungi haroratning oshishi bilan kamayadi", *Proc. Natl. akad. Sci. AQSh* 101 (27) 9971-9975,
8. Rahimov G. N va boshqalar "O'zbekistonda sholi yetishtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatma". Toshkent. "Mehnat" 1998y. St-7b
9. Serraj, R., McNally, K. L., Slamet-Loedin, I., Kohli, A., Haefele, S. M., Atlin, G., & Kumar, A. (2011). Drought Resistance Improvement in Rice: An

- Integrated Genetic and Resource Management Strategy. *Plant Production Science*, 14(1), 1–14.
10. Saito, K., Senthilkumar, K., Dossou-Yovo, ER, Ali, I., Jonson, JM, Mujawamariya, G., & Rodenburg, J. (2023). Sahroi Kabirdan janubiy Afrikada guruch ishlab chiqarishning holati va muammolari. *O‘simlik ishlab chiqarish fanlari* , 26 (3), 320-333.
11. Singh, V., Zhou, S., Ganie, Z., Valverde, B., Avila, L., Marchesan, E., ... & Bagavathiannan, M. (2017). Rice production in the Americas. *Rice production worldwide*, 137-168.
12. www.english-life.uz- “Sholi biologiyasi va kelib chiqishi” electron manbasi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670381>

JAMOAT TRANSPORTI TIZIMLARI VA ULAR UCHUN ALOHIDA YO‘L AJRATISHNING TAHLILI

Jumayev Shaxzod Shavkat o‘g‘li,
Qarshi davlat texnika universiteti assistenti
shaxzodj886@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada jamoat transporti tizimlarining shahar infratuzilmasidagi o‘rni, ularning samaradorligini oshirish yo‘llari hamda alohida yo‘l ajratish (Bus Rapid Transit – BRT) tizimining afzalliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar asosida jamoat transportining optimallashtirilgan modelini yaratish bo‘yicha takliflar keltiriladi hamda markaziy shahar chorrahalarda jamoat transportining harakati va ularga beriladigan ustunlikdan foydalanish, O‘zbekiston shaharlaridagi jamoat transporti tizimlari va ular uchun alohida yo‘l ajratilgan shaharlar va uning harakat tezligiga ta’siri tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: shahar infratuzilmasi, jamoat transporti, avtobus ustuvorlik tizimlari, avtobus uchun ajratilgan yo‘l.

KIRISH

Global urbanizatsiya jarayonlari fonida shahar transport tizimlariga bo‘lgan talab tobora ortmoqda. Ko‘plab shaharlarda shaxsiy avtomobillar sonining o‘sishi transport tirbandliklariga, atrof-muhit ifloslanishiga va vaqt yo‘qotishlarga olib kelmoqda. Shu bois, jamoat transporti tizimlarini rivojlantirish va samaradorligini oshirish zamonaviy urbanistik siyosatning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Ulardan biri jamoat transporti uchun alohida yo‘l ajratish (Dedicated Bus Lanes) tizimi hisoblanadi. Jahonda aholi hayot tarzi va shahar infratuzilmasi darajasi bo‘yicha yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasida, shahar infratuzilmasini isloh etish va aholiga transport xizmatini ko‘rsatish sifatini yaxshilashda jamoat transporti muhim o‘rin egallaydi. Oldimizda turgan masalalar jamoat transportini tubdan isloh etish,


mamlakatimizning tuman va shaharlarida jamoat transportini rivojlantirish, hududlarning unga bo'lgan ehtiyojini qondirish, transport infratuzilmasini tashkil etish, transport-logistika masalalariga ilmiy jihatdan yondashish, xususan, xorijiy tajribani o'rganish, sohaga zamonaviy kadrlarni tayyorlash va jalb etish vazifalaridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tahlillar bugungi kunda jamoat transportidan samarali foydalanish bilan bog'liq bir qator muammolar o'z ilmiy yechimini kutayotganini ko'rsatmoqda. Jumladan, aholiga xizmat ko'rsatuvchi transport vositalari parkini yangilash va ulardan foydalanish darajasini oshirish, yo'lovchi tashish xarajatlari va avtomobillarni ishlatish ko'rsatkichlari o'rtasida oqilona mutanosiblik o'rnatish, jamoat transportidan foydalanish tariflarining asossiz o'sib ketishiga yo'l qo'ymaslik kabi muhim masalalar shular jumlasidandir. Respublikamiz hududi keng, aholi soni ortishi asnosida ular istiqomat qiluvchi katta-kichik punktlar soni ham tobora ko'payib boryapti. Shuningdek, yo'lovchilarga qulaylik yaratish, tashish va texnik xizmat ko'rsatish jarayonlarini qamrab oluvchi tezkor axborot tizimini shakllantirish, aholini belgilangan yo'nalishlarda yo'l infratuzilma ob'ektlari bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish hamda yo'lovchilarga transport xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar xodimlarining malakasini oshirishni yanada takomillashtirish zarur.

Bugungi kunda shahar aholisini jamoat transportiga jalb etilish har ikki tomonlarga katta foyda keltiradi. Aholi kelajakka sog'lom muhitda ortiqcha shovqinlarsiz hayot kechirishi, hukumatimiz esa mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin egallagan transport tizimini yaxshi isloh etishi mumkin bo'ladi. Agarda hozirgi holatni olib qaraydigan bo'lsak, vaziyat biroz jiddiy oqibatda odamlar boshqa transport vositalaridan foydalanishni afzal bilmoqda.

Bugungi kunda shahar jamoat transportida bor-yo'g'i 33 foiz yo'lovchi yurmoqda. Taqqoslab ko'rganda rivojlangan mamlakatlar poytaxtida bu ko'rsatkich 60-70 foizni tashkil etadi. Shu bois mavjud infratuzilmani yaxshilab, jamoat transporti harakatining tezligi va aholi uchun qulayligini ta'minlanishi lozim.



1-rasm. Rivojlangan mamlakatlar markazlarida aholining jamoat transportidan foydalanish ulushi.

Ayni paytda «Toshshahartransxizmat» jamoat transporti uchun alohida yo‘lakni sinovdan o‘tkazmoqda. Rejaga ko‘ra, Toshkent xalqaro aeroportidan Bobur va Furqat ko‘chalari bo‘ylab Beshyog‘och maydoniga qadar avtobuslar uchun yo‘lak ajratiladi. Toshkent shahridagi eng tirband va to‘rt bo‘lakdan ko‘p bo‘lgan yo‘llarning bir qismida faqat jamoat transporti harakatlanishi yo‘lga qo‘yiladi. Poytaxtdagi tirbandliklar yuqori va bir tarafi to‘rt yo‘l bo‘lagidan ko‘p bo‘lgan avtomobil yo‘llarining bir qismini jamoat transporti uchun ajratish bo‘yicha aniq yo‘nalishlar ro‘yxati shakllantiriladi va jamoatchilik muhokamasi asosida Toshkent shahar xalq deputatlari kengashiga tasdiqlash uchun kiritildi. Shuningdek, ushbu masala yuzasidan jamoatchilik fikrini aniqlash maqsadida ijtimoiy tarmoqlar orqali tushuntirish ishlari va so‘rovnomalar o‘tkazildi. Ulardan 68 foizi jamoat transporti uchun alohida yo‘l bo‘lagi tashkil etishni ma‘qullagan bo‘lsa, 13 foizi salbiy munosabat bildirgan, 17 foizi esa betaraf bo‘lgan». Mazkur loyihani amalga oshirish orqali:

- yo‘nalishdagi avtobuslarning harakatlanish tezligini 25 foizga oshirish;
- transport vositalarining chorrahalaridan o‘tishdagi to‘xtashlar sonini 3,5 tadan 1 taga kamaytirish;
- transportning ekologiyaga zararini 33 foizgacha kamaytirish ko‘zda tutilgan.

Toshkentda mavjud avtobus va metro tarmog'i yetarli quvvatga ega bo'lmagan vaqtda, shaxsiy avtomobillar soni keskin oshmoqda. Alohida yo'l ajratish tizimi yo'q yoki cheklangan. 2024 yilda sinov tariqasida joriy etilgan avtobus yo'laklari natijasida yo'nalish bo'yicha o'rtacha harakat tezligi **28% oshgani** kuzatilgan.

Jamoat transporti uchun ajratilgan yo'llar bu ko'pincha ma'lum kunlarda yoki vaqtlarda, odatda tirbandlik kuzatilishi mumkin bo'lgan yo'llarda, jamoat transportida tezlikni oshirish uchun ishlatiladi. Avtobus yo'li - bu yuqori sifatli avtobuslarning tezkor tranzit tarmog'ining muhim tarkibiy qismi bo'lib, boshqa transport qatnovi tufayli kechikishni kamaytirish orqali avtobusning harakatlanish tezligini va ishonchliligini yaxshilaydi.

Dunyodagi birinchi avtobus yo'lagi 1940-yilda Chikagoda yaratilgan.

Yevropada birinchi avtobus yo'laklari 1963-yilda Germaniyaning Gamburg shahrida tashkil etilgan bo'lib, o'sha paytda tramvay tizimi yopilib, avvalgi ajratilgan tramvay yo'llari avtobus qatnovi uchun o'zgartirildi. Tez orada Germaniyaning boshqa yirik shaharlari paydo bo'ldi va 1970-yilda avtobus yo'laklarining o'rnatilishi Germaniya avtomobil yo'llarining kodeksida rasmiy ravishda tasdiqlandi. Boshqa mamlakatlardan kelgan ko'plab mutaxassislar (1-bo'lib Yaponiya) Germaniya misolini o'rganishdi va shunga o'xshash yechimlarni qo'llashdi. 1964-yil 15-yanvarda Fransiyadagi birinchi avtobus yo'lagi Parijdagi du Luvr bo'ylab belgilandi.

1968-yil 26-fevralda Londonning birinchi avtobus yo'lagi Voksxall ko'prigida foydalanishga topshirildi.

Bunga sabab, o'sha yilning 3-noyabrida yechilishi kerak bo'lgan trolleybusni qayta yo'naltirish xarajatlarini tejash edi. Ammo tajriba shunchalik muvaffaqiyatli bo'ldiki va u doimiy foydalanishga aylantirildi. 1972-yilga kelib, OECDga a'zo mamlakatlarning 100 shahrida 140 km dan ortiq avtobus yo'llari mavjud edi va tarmoq keyingi o'n yilliklarda sezilarli ravishda o'sdi.

BRT (Bus Rapid Transit) tizimi

BRT — avtobuslar uchun alohida yo'laklar, tezkor to'lov tizimi, signal ustuvorligi va stansiyalarning optimal joylashuvi kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Afzalliklari:

- Transport qatnov tezligi 2–2.5 barobar oshadi;
- Yo'lovchi tashish sig'imi 3–4 barobar ortadi;
- Avtobuslar jadval asosida qatnaydi;
- Shaxsiy transportga qaramlik kamayadi.

Yirik shaharlardagi avtobus yo'llarining uzunliklari [1-jadval].
1-jadval.

Shahar	Mamlakat	Aholisi (million)	Avtobuslar soni (dona)	Avtobus yo'llarining uzunligi (km)
Sidney	Avstraliya	4.3	1900	90
Vena	Avstriya	1.8		56
San Paulo	Braziliya	10.9	14900	155
Santiago	Chili	6.5	4600	200
Pekin	Xitoy	19.6	26000	294
Bagota	Kolumbiya	6.7	1080	84
Xelsinki	Finlandiya	0.6	470	44
Gang Kong	Gang Kong	6.8	19768	22
Jakarta	Indoneziya	10.1	524	184.31
Seul	Janubiy Koreya	10.4	8910	282
Oklend	Yangi Zelandiya	1.6	14000	128
Singapur	Singapur	5.5	3775	200
Madrid	Espaniya	7	2022	50
London	Buyuk Britaniya	7.5	6800	240
New york	AQSH	8.5	5777	80

Takliflar:

1. Shahar markazidan periferiyaga uzluksiz **BRT** yo'nalishlarini joriy etish;
2. Jamoat transporti uchun **aqlli svetofor tizimi** va **signal ustuvorligini** yo'lga qo'yish;
3. **Elektr avtobuslarni** joriy qilish orqali ekologik samaradorlikka erishish;
4. Avtobus bekatlarini **raqamlashtirish va real vaqt rejimida monitoring qilish**.

XULOSA

Jamoat transportiga alohida yo'l ajratish — tirbandliklar, ekologik muammolar va ijtimoiy noqulayliklarga qarshi kompleks yechimdir. Samarali rejalashtirish va investitsiya siyosati bilan bu tizim shaharning harakatlanish sifatini tubdan yaxshilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. [A Bus Rapid Transit Line Case Study: Istanbul's Metrobüs System](#)
Anil Yazici 1, Herbert S. Levinson 2, Mustafa Ilicali 3, Nilgün Camkesen 4, Camille Kanga 5

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670386>

DVIGATELNING KONSTRUKSIYASINI O'ZGARTIRIB YOQILG'I SAMARADORLIGI OSHIRISH, FOYDALI ISH KOEFFITSIYENTI

Jumayev Shaxzod Shavkat o'g'li,

Qarshi davlat texnika universiteti assistenti

shaxzodj886@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada avtomobil dvigatellarining konstruksiyasini modernizatsiya qilish orqali yoqilg'i sarfini kamaytirish usullari va ularning afzalliklari, amaliy tadbiqlari to'g'risida tadqiqot olib borilgan. Shuningdek, ekologik talablarga javob beruvchi texnologiyalar haqida ham ma'lumotlar berilgan. Bugungi kunda transport vositalarining ko'payishi bilan yoqilg'i sarfi va atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar miqdori keskin oshmoqda. Bu holat ekologik muammolarning chuqurlashishiga olib kelmoqda. Shu sababdan dvigatel konstruksiyasini takomillashtirish orqali yoqilg'i samaradorligini oshirish dolzarb masalaga aylangan.

Kalit so'zlar: avtomobil, elektron boshqaruv tizimlari (ECU), IYoD, Gibrit tizim, samaradorlik, yoqilg'i, foydali ish ko'effitsiyenti, issiqlik miqdori.

INCREASING FUEL EFFICIENCY AND EFFECTIVENESS BY CHANGING ENGINE DESIGN

ABSTRACT

This article studies methods for reducing fuel consumption by modernizing the design of automobile engines, their advantages, and practical applications. It also provides information on technologies that meet environmental requirements. Today, with the increase in the number of vehicles, fuel consumption and the amount of harmful gases emitted into the atmosphere are increasing sharply. This situation is leading to a deepening of environmental problems. For this reason, improving fuel efficiency by improving engine design has become a pressing issue.

Keywords: automobile, electronic control systems (ECU), IED, hybrid system, efficiency, fuel, useful work coefficient, heat content.

KIRISH

Hozirgi kunda ham ichki yonuv dvigatellari (IYoD) zamonaviy transport vositalarining asosiy quvvat manbai bo'lib, ular yoqilg'ini mexanik energiyaga aylantirishda yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlashi kerak. Shu bilan birga, IYoDlarning yoqilg'i sarfi va chiqindi gazlari ekologik muammolarning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada IYoD konstruksiyasini o'zgartirish orqali yoqilg'i samaradorligini oshirish yo'llari texnik va ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi.


MUHOKAMA

Dvigatel konstruksiyasini optimallashtirishning quyidagi asosiy yo'nalishlari mavjud:

- 1. Yengil materiallardan foydalanish:** Aluminiy, magniy qotishmalaridan foydalanish orqali dvigatel og'irligi kamayadi. Bu esa yoqilg'i tejamkorligini ta'minlaydi.
- 2. Silindrlar soni va hajmini optimallashtirish:** Kichikroq hajmga ega, lekin yuqori samarali turboquvvatlovchi bilan jihozlangan dvigatellar kamroq yoqilg'i sarflaydi.
- 3. Ta'minlash tizimlarini takomillashtirish:** Yoqilg'i purkash tizimini yuqori bosim ostida ishlovchi zamonaviy tizimlarga almashtirish (masalan, Common Rail tizimi) orqali yonilg'i samarali yoqiladi.
- 4. Issiqlik energiyasidan samarali foydalanish:** Issiqlik energiyasini elektr energiyasiga aylantiruvchi tizimlar (masalan, termoelektr generatorlar) yordamida umumiy samaradorlik oshiriladi.

Dvigatelni boshqarish tizimini takomillashtirish orqali yoqilg'i sarfini kamaytirishning quyidagi usullari mavjud:

- 1. Elektron boshqaruv tizimlari (ECU):** Har bir silindrning optimal yonish vaqtini va yoqilg'i miqdorini avtomatik tarzda nazorat qiluvchi tizimlar orqali ortiqcha yoqilg'i sarfining oldi olinadi.
 - 2. Start-Stop tizimi:** Transport vositasi to'xtaganda dvigatelni avtomatik o'chirib, harakat boshlanishida qayta ishga tushiruvchi tizim yoqilg'i tejashda samarali hisoblanadi.
- Yoqilg'i sarfini kamaytirish uchun yordamchi texnologiyalar**
- Gibril tizimlar:** Ichki yonuv dvigateli bilan birgalikda elektromotorlardan foydalanish yoqilg'i sarfini keskin kamaytiradi.
 - Aerodinamikani yaxshilash:** Avtomobil tashqi dizaynidagi o'zgarishlar orqali havo qarshiligi kamayadi, bu esa dvigatelga tushadigan yuklamani kamaytiradi.




1-rasm. Ichki yonuv dvigatellariga kiritiladigan texnologik o'zgarishlarning yoqilg'i sarfiga ta'siri

Yonish kameralarining shakllarini loyihalashda, odatda, yonish kamerasining eng katta ixchamligini va shamni markazga yaqin joylashtirish imkoniyatini ta'minlaydigan optimal yani kamroq ixcham kamera katta zaryad turbulentligini (tekis oval, xanjar va yarim xanjar) ta'minlagan holda, yuqori zarbaga qarshi xususiyatlarga ega sxemani tanlanadi.

Yonish kameralarining shakllaridagi o'zgarishlarni solishtirib aralashmaning hosil bo'lish jarayonlarini tavsiflaymiz va dvigatelning yoqilg'i samaradorligi, samarali yoqilg'i sarfiga erishiladi. Dizel dvigatelning ishlashi yonish bilan boshlanadi. Ammo yonish kameralariga oddiygina gaz olib kelish etarli emas. Gaz siqilishdan o'z-o'zidan yonib ketmaydi, chunki uning o'z-o'zidan yonish harorati dizel yoqilg'i sidan ham yuqori: gaz uchun 700 daraja, dizel yoqilg'i si uchun 320-380. Shuning uchun, dizelni gazga aylantirishda, hatto nazariy darajada ham, faqat bitta turdagi yoqilg'idan foydalanish haqiqiy emas.

Katta diametrli silindr kichik tasavvurlar bilan klapanlarni joylashtirish imkonini beradi, bu esa gidravlik yo'qotishlarni kamaytirishga va to'ldirish omilini oshirishga yordam beradi. Hozirgi vaqtda keng qo'llaniladigan qisqa zarbli dvigatellar (porshen zarbasining silindr diametriga nisbati birdan kam bo'lgan dvigatellar) nisbatan katta silindr diametriga ega. Bu katta diametrli vallar tepada joylashganida silindr boshlariga joylashtirish imkonini beradi. Yuqori valning joylashishi va kirish klapanlarining aerodinamik shakli gidravlik qarshilikni kamaytirishga va natijada to'ldirish nisbatini oshirishga imkon beradi.



Rasm 1. Dvigatelning yonish kamerasi: 1 - asosiy yonish kamerasi; 2 - kirish valfi; 3 - old kameraning kirish kanali; 4 - old kamerali valf; 5 - sham; 6 - old kamera; 7 - asosiy yonish kamerasi bilan old kameraning birlashtiruvchi kanalini ochish

Dvigatelning samarali quvvati

$$Ne = \frac{2}{T} Pe \cdot Vh \cdot n \cdot i \cdot 10^3, \quad (1)$$

bu erda o'rtacha samarali bosim

$$Pe = 10^3 \frac{Ne \cdot T}{2Vh \cdot n \cdot i} \quad (2)$$

P_i tufayli indikator quvvatining nisbiy pasayishi P_m mexanik samaradorlik hisoblanadi

$$\eta_e = \frac{Pe}{Pi} = 1 - \left(\frac{Pm}{Pi} \right) = 1 - \left(\frac{Pm}{Pe} \right) \quad (3)$$

Dvigatelning yoqilg'i samaradorligi, foydali ish koeffisienti, samaradorlik η_e yoki o'ziga xos samarali yoqilg'i sarfi g_e , samarali issiqlik miqdori Q_e , W_e ga aylantirilgan Q_o , ya'ni umumiy issiqlik bilan ta'minlangan.

$$\eta_e = \frac{Q_e}{Q_o} = \frac{W_e}{\Delta Gmy \cdot Hu} \quad (4)$$

Porshen halqalarining joylashuvi porshen boshining balandligini aniqlaydi. Yuqori halqa porshenning pastki qismiga qanchalik yaqin bo'lsa, uning boshining

balandligi pastroq bo‘ladi, lekin halqaning ishlash sharoitlari qiyinroq bo‘ladi. Halqa porshenning pastki qismiga qanchalik yaqin bo‘lsa, uning harorati shunchalik yuqori bo‘ladi va shuning uchun sarg‘ish tendentsiyasi shunchalik yuqori bo‘ladi. Yonish kameralarining shakllarini loyihalashda, odatda, yonish kamerasining eng katta ixchamligini va shamni markazga (yarim sharsimon) yaqin joylashtirish imkoniyatini ta‘minlaydigan bunday sxemani tanlashga intiladi. Shu bilan birga, ba‘zan kamroq ixcham kameralar katta zaryad turbulentsligini (tekis oval , xanjar va yarim xanjar) ta‘minlagan holda, yuqori zarbaga qarshi xususiyatlarga ega.

Masalaning qo‘yilishi va tadqiqot usuli

Dvigatelning konstruksiyasini o‘zgartirilib issiqlik miqdoridan yoqilg‘i samaradorlikka erishgan xolda foydali ish koeffisienti yaxshilash, yoqilg‘i sarfi kamaytirish.

Zamonaviy konstruktiv va texnologik yechimlar:

1. *Turbocharger va downsizing*

Hajmi kichikroq dvigatellarni turboquvvatlovchi (turbocharger) bilan jihozlash orqali dvigatelning og‘irligini kamaytirib, ayni quvvatda yoqilg‘i sarfini 10–20% kamaytirish mumkin. Bu jarayon “downsizing” deb yuritiladi.

2. *Yoqilg‘i purkash tizimlari modernizatsiyasi*

Common Rail tizimi yoki GDI (Gasoline Direct Injection) tizimlari orqali har bir silindrga yuqori bosim ostida yoqilg‘i yuboriladi. Bu tizim yonish jarayonining aniq va to‘liq bo‘lishini ta‘minlaydi. Natijada, NOx chiqindilari kamayib, yonilg‘i sarfi 5–10% ga qisqaradi.

3. *Silindrni vaqtincha o‘chirib turish texnologiyasi (Cylinder Deactivation)*

Dvigatel yuklamasi kam bo‘lgan holatlarda ba‘zi silindrlar avtomatik tarzda faoliyatini to‘xtatadi. Bu esa ayniqsa shahar harakatlarida yoqilg‘i sarfini 7–10% gacha kamaytiradi.

Dvigatel blokida ishlatiladigan materiallar issiqlikni yaxshi izolyatsiya qilishi yoki uni foydali ishga aylantira olishi kerak. Masalan, keramika qoplamalar yordamida silindrlar devoridagi issiqlik yo‘qotishlari 10–15% ga kamaytiriladi.

Yonish kameralarining shakllaridagi o‘zgarishlarni solishtirib aralashmaning hosil bo‘lish jarayonlarini tavsiflaymiz.

Yonish kameralarining aksariyati inqilob jismlari shaklida. Agar yonilg‘i yonish kamerasining hajmida turbolizatsiya va uning faqat kichik bir qismi yaqin devor qatlamiga kirsa, unda aralashmaning shakllanishi volumetrik deb ozgradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda dvigatel konstruksiyasini zamonaviy ilmiy-texnik yondashuvlar asosida o'zgartirish orqali yoqilg'i sarfini sezilarli darajada kamaytirish mumkin. Konstruktiv va elektron boshqaruv tizimlarining uyg'unligi asosida quyidagi natijalarga erishiladi:

- Yoqilg'i sarfi 30–35% gacha kamayadi;
- Chiqindi gazlar miqdori pasayadi;
- Dvigatelning ekologik standartlarga mosligi oshadi.

Ushbu texnologiyalarni avtomobilsozlikda keng joriy qilish kelajakdagi energiya samarador transport vositalarini yaratishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Bosch Automotive Handbook, 10th Edition, Wiley, 2018.
2. Zokirjon Musabekov, Jamshid Hakimov, Ergashev Botir. Ichki yonuv dvigatelida gaz almashinuvini hisoblash uchun differentsial tenglamalar. E3S Web Conf. "Qurilish mexanikasi, gidravlika va suv resurslari muhandisligi" xalqaro ilmiy konferensiyasi (CONMECHYDRO - 2021). 264-jild, 2021 yil. 1-7-betlar. DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202126401003>

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15670392>

МЕДИКО-СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ МЕТАБОЛИЧЕСКОГО СИНДРОМА СРЕДИ НАСЕЛЕНИЯ ГОРНЫХ РАЙОНОВ

Арипов Аслиддин Махмудович

Ферганские медицинские институт общественного здоровья
usta_didaskal@mail.ru

Аннотация: Метаболический синдром (МС) — сочетание абдоминального ожирения, гипертензии, гипергликемии и дислипидемии — является мощным предиктором сердечно-сосудистых заболеваний и диабета 2-го типа. Регионы высокогорья, такие как Сохский район (~1000–1500 м над уровнем моря), имеют свои особенности, влияющие на распространённость и последствия МС.[1] Для населения высокогорных районов Центральной Азии (Кыргызстан, Таджикистан, Казахстан, Узбекистан) характерны как уникальные природно-географические, так и социальные вызовы, усиливающие тяжесть распространённости и последствий МС. Важным аспектом является влияние социальных факторов, таких как уровень образования, социально-экономический статус, образ жизни и экологическая обстановка, на развитие и прогрессирование МС. Эти факторы могут способствовать развитию синдрома и влиять на эффективность профилактических мероприятий. Важным является выявление и своевременная коррекция факторов риска, таких как недостаточная физическая активность, нездоровое питание, стрессы, курение и злоупотребление алкоголем.

Литература: Глобальный обзор выявил распространённость МС среди горного населения (альпинистов, фермеров, пастухов) на уровне 30,3 % (95 % CI 22,8–38,4 %), причём выше на средних высотах (1 500–2 500 м) — до 36,5 %, и несколько ниже на высотах > 3 500 м (30,9 %) [9]. На **Тибетские пастухи** (≈3 700 м) доля МС составляет 8,2 %, при этом отдельные компоненты синдрома — абдоминальное ожирение — 46 %, гипергликемия — 57,5 %, гипертензия — 37 %. Водородная казахская община (ККСК, IDF): у мужчин — 28,6 %, женщин — 31,0 % . Многоэтническое сельское население Синьцзяна (Xinjiang) — возраст-стандартизированная распространённость составляет до 21,3 % (по IDF), максимальная — 26,5 % (по IIS) [10]. **Монголия (горы)** среди взрослого

населения ≥ 40 лет распространённость МС (IDF) составляет 19,4 % у мужчин и 40,6 % у женщин [11].

По данным скрининга факторов риска хронических неинфекционных заболеваний среди горного населения Таджикистана (высота 1500–2500 м), показатель МС составил до 30 %.[15]

Согласно мета-анализу, глобальная распространённость МС на высотах 1500–2500 м — 36,5 %, на 2500–3500 м — 21,8 %, на >3500 м — 30,9 %[16]. Среди тибетских пастухов (~ 3700 м) частота МС составляет 8,2 %, при этом отдельные компоненты: абдоминальное ожирение — 46 %, гипергликемия — 57 %, гипертония — 37 %[17]. У жителей высокогорья (Казахстан/Узбекистан/Кыргызстан и др.) распространённость МС по IDF составляет около 21–31 % с незначительными региональными и этническими различиями[18]. В США среди подростков (12–19 лет) МС диагностируется в среднем у 4–5%, при этом у мальчиков — чаще (около 6%), у девочек — примерно в 2 % случаев[2]. Более высокий уровень (до 9,8%) наблюдается в зависимости от выбранных критериев диагностики[3]. Среди детей в возрасте 6–12 лет МС — около 3%, а среди подростков 13–18 лет — порядка 5% глобально[4].

Международный обзор показал, что распространённость МС у молодых колеблется от 0,3 % до 26,4 % в зависимости от региона и критериев[5]. Медианная частота — приблизительно 3,8 %.

Среди детей с ожирением ($\text{BMI} \geq 95$ перцентиля) МС встречается у 28–57% подростков[6]. В Новосибирске около 11,8 % подростков имеют инсулинорезистентность (IR) — у мальчиков 13,4 %, у девочек — 10,5 %[7].

По данным российского исследования, среди школьников в возрасте 0–17 лет распространённость ожирения за 2014–2018 гг. выросла на 8,7 %[8]. Что касается взрослого населения России, то распространённость МС достигает 20–27 %, причём чаще встречается у женщин и в городах.

Медицинские и социальные аспекты: **Условия Сохского района:** удалённость, ограниченный доступ к диагностике (артериальное давление, глюкоза), преобладание животноводческого образа жизни, малое потребление овощей и фруктов.

Горная и климатическая адаптация: гипоксия и низкие температуры могут замедлять метаболизм, но не оказывают защитного эффекта — распространённость остаётся высокой (30 % на средних высотах) [16].

Социальное влияние: смешанные населённые пункты, малый охват профилактикой, низкий уровень информированности, часто отсутствуют скрининги и регулярные обследования.

Физиологическая адаптация и пригорные условия: высокая гипоксическая нагрузка, холодный климат и напряжённая физическая деятельность влияют на самочувствие и метаболизм, но, по данным мета-анализа, МС не обязательно ниже на высотах, несмотря на естественный отбор .

Диетические паттерны и образ жизни: У сельского населения Центральной Азии — преобладание красного мяса и молочной продукции, недостаток овощей; это повышает риск МС, особенно ожирения и дислипидемии [12,13]. В условиях урбанизации и перехода к оседлому образу жизни (напр. тибетские сообщества), наблюдается рост МС — 8–21 % .

Просветительство и доступность медицинской помощи: Низкий уровень информированности и контроля (гипертония, дислипидемия) среди удалённых общин. Ограниченный доступ к профилактической медицине и диагностике осложняет раннее выявление.

МЕТОДОЛОГИЯ

Одним из самых распространенных показателей массы тела является Индекс Кетле, который разработан бельгийским социологом и статистиком Адольфом Кетле в 1869 году. Индекс Кетле представляет собой простой показатель отношения веса к росту и рассчитывается индивидуально по формуле: индекс Кетле ($\text{кг}/\text{м}^2$) = вес (кг): рост^2 (м^2)

Индекс Кердо — показатель, использующийся для оценки деятельности вегетативной нервной системы. Индекс вычисляется по формуле:

$Index = 100 * (1 - DAD/Pulse)$, где:

- DAD — диастолическое артериальное давление (мм рт. ст.);
- Pulse — частота пульса (уд. в мин.).

Индекс Робинсона – показывает индекс работы сердца, отражает уровень гемодинамической нагрузки на сердечно - сосудистую систему и характеризует работу сердечной мышцы

- Среднее значение индекса – 81-90;
- Выше среднего 80-75;
- Высокое – 74;
- Низкое при 101 и выше;

Формула индекса Робинсона.

- Индекс Робинсона = $(\text{ЧСС} * \text{Систолическое АД или "Верхнее АД"}) / 100$

Цель исследования: Совершенствовать прогнозирования метаболического синдрома и соответствующие профилактические мероприятия у лиц сельского населения

Методы исследования: Соматоскопия, физиометрия, статистические методы

Материал и методы исследования В данном исследовании приняли участие 130 респондентов в возрасте от 18 до 74 лет сельского населения.

На первом этапе всем респондентам были проведены клинико-инструментальные исследования с целью выявления компонентов МС по критериям. Антропометрическое обследование: индекс массы тела (ИМТ) (индекс Кетле), также проводилось измерение АД трижды, (индекс Робинсон, индекс Кердо)

На втором этапе материалы обработана статистическое методом.

Таблица 1. Индекс Кетле

индекс массы тела	возраст			общий
	15-34,9	35-54,9	55-74,9	
16 и менее	3,1	0	0,0	1,5
16-18,5	17,2	2,5	3,8	10,0
18,5-25	53,1	42,5	26,9	44,6
25-30	20,3	50	34,6	32,3
30-35	3,1	5	26,9	8,5
35-40	3,1	0	7,7	3,1

Таблица 2. Индекс Кердо

Кердо индекси	возраст			общий
	15-34,9	35-54,9	55-74,9	
вагатания	4,7	5,0	7,7	5,4
норма	71,9	82,5	88,5	78,5
симпотикония	23,4	12,5	3,8	16,2
абсолютно число	64	40	26	130

Таблица 3. Индекс Робинсона

